

# MUNDARIJA

## **Kirish.**

I- bob. Maktab geografiya darslarida geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalarning ahamiyati.

1.1 Geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalarning maktab geografiya darslaridagi tutgan o'rni.

1.2 Maktab geografiya darslarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanishning maqsadlari va vazifalari.

1.3 Maktab geografiya darsidagi geografiya fanlarini o'qitishda foydalaniladigan atlaslar va yozuvsiz kartalarning turlari.

II-BOB Maktab geografiya darsida geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanishni texnologiyalari.

2.1 Maktab geografiya darsidagi geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanishni o'qitish metodlari.

2.2 Geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalarning maktab geografiya darsidagi foydalanishda no'nnaviy dars uslublarini qo'llash.

2.3 Geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalarning maktab geografiya darsidagi foydalanishda sinfdan tashqari bajariladigan ishlar.

**Xulosa:**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ko'rsatilgan soxalarni amalga oshirib borib, jamiyatimizning kelajagi uchun xar tomonlama etuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning mohiyati, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanish talablariga mos barkamol avlodni tarbiyalash masalalari izchillik bilan taxlil etilgan.

Dasturda ko'rsatilgan dolzarb vazifalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari jamiyat taraqqiyotini xar tomonlama etuk qadrlarsiz. Ayniqsa o'qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin.

Malakaviy pedagogik mutaxassislar tayyorlash esa ko'p jixatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog'liqdir.

Ayniqsa xozirgi axborot texnologiyalariga tayangan holda geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash ta'lim mohiyatini, geografik hodisa, voqealarni xamda tabiiy va iqtisodiy geografik tushuntirishlarni o'quvchilar, talabalar ongiga etkazish va shakllantirish xar bir mutaxassis o'quvchilardan yuqori ma'suliyat talab qiladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'quvchilarga xamda talabalarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmasdan balki ularda tabiatni sevishga, uni asrashga, tabiatni xuddi ona kabi muqaddas deb ardoqlashga o'rgatish xamda zarur ko'nikma va malaka xosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda.

Har bir o'quvchi va talaba dars davomida olgan ko'nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallash zarur bo'ladi. Ayniqsa, maktab geografiya darsidagi geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanishni o'qitish ta'limi orqali atrof-muxit va undagi jonli va jonsiz tabiat sirlarni egallash muxim axamiyat kasb etadi.

Respublikamizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq umumiy o'rta, akademik litsey, kasb-xunar kollejlari xamda oliy ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarni va talabalarni muntazam bilim olish, ularda bilim olish extiyojlarini rivojlantirishni o'quvchilarda va talabalarda mehnat ko'nikmalarini

mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va umumbashariy qadriyatlarni xurmat qilishni o'z vataniga, xalqiga sadoqat, mexr-muxabbat ruxida tarbiyalashdek vazifalarni belgilaydi. Bu vazifalarni bajarishda kartografiya, ekologiya va geografiya ta'limi aloxida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya, kartografiya, ekologiya, geoekologiya fanlarini o'qitish borasida milliy dasturda qo'yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamoqda.

Bularning barchasi geografiya va kartografiya fani o'qituvchisidan yuksak pedagogik maxorat, o'z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni taxlil qila olishni, o'z ish tajribasini taxlil qilib umumlashtira olishni boshqa o'qituvchilarning tajribasini umumlashtirishi va samarali usullar, metodlardan o'z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

Men ushbu bitiruv malakaviy ishimda umumta'lim maktablarining geografiya, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish mavzusini o'rganishda geografiya ta'limida qo'llaniladigan metodlardan foydalanilgan xolda yozishga xarakat qildim. Bundan tashqari pedagogik amaliyoti davomida o'zlashtirilgan ko'nikma va tajribalarimga tayangan xolda mavzuni o'qishda qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar, kartalar, jadvallar, grafiklardan foydalanish yo'llarini yoritishga xarakat qildim.

Mavzuni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan, yangi axborotlarni to'plash, internet tizimi, gazeta-jurnallardan foydalangan xolda ularni taxlil qilishga xarakat qildim.

Geografiya fanlarini o'rganishda rivojlanayotgan davlatlar, respublikalar va viloyatlarning xo'jaligidagi rivojlanish sabablarini, iqtisodiy, madaniy yutuqlarini, ekologik xolatini kartalar orqali taxlil qilish mavsadga muvofiqdir.

Keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy texnika taraqqiyoti va ijtimoiy soxadagi yutuqlar geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish ta'limining mohiyati mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bu borada buyuk olim N.N.Baranskiy tabiiy va iqtisodiy geografik tadqiqotlarda geografik atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanishning moxiyati tushunchasining ahamiyatiga to'xtalib, bu tushunchaning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy geografiya uchun ahamiyati nixoyatda katta ekanligini, uning tabiiy va iqtisodiy nazariyasi boshqa tabiiy, iqtisodiy va amaliy geografiya fanlari bilan bog'lovchi vosita ekanligini doim uqtirib kelgan.

Buyuk olim N.N.Baranskiy «kartasiz geografiya yo'q», «karta geografyaning alfa va omegasidir» degan fikrlarni aytgan.

Bu tushuncha mavzusini o'rganishning deyarli barcha mavzularida davlatlar, respublikalar, viloyatlar, shaxarlar, rayonlar, o'lkalar xo'jaligining kartalarini o'rganishda xo'jalik tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni bilishda katta ahamiyat kasb etadi. Geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalarning maktab geografiya darsidagi foydalanishda ta'lim tushunchasi o'quvchilar bilimini ma'lum bir tizimga solishda, uning yordamida boshqa tabiiy va iqtisodiy geografik tushunchalarning shakllanishi ancha engillashadi.

Geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalarning maktab geografiya darsidagi foydalanishda ta'limning moxiyati mavzusida tabiiy, iqtisodiy va ekologiya geografik tushunchasi tarmoqlar misolida xar bir tarmoq xususiyatlari va joylashishi chuqur o'rganiladi. Ayniqsa tarmoqlarning tabiiy, iqtisodiy, ekologik kartalari va darsliklardan xilma-xil mazmundagi kartalar xududiy ixtisoslashishi va amaliy geografiyadagi ekologik va iqtisodiy aloqalarni bilib olishda katta ahamiyatga ega.

Geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalarning maktab geografiya darsidagi foydalanish mavzusini o'rganishning asosiy jixatlaridan biri respublika, viloyatlar geografiyasi xisoblanadi.

Geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalarning maktab geografiya darsidagi foydalanish mavzusini o'qitishda geografik kartalarni taxlil qilishga o'rganishda eng asosiy ob'ekt respublika, viloyatlar tabiiy, iqtisodiy va ekologik xolati, axolisi va xo'jaligi etakchi o'rin egallaydi. Bundan tashqari

respublika, viloyatlarning siyosiy kartasi, kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari materiallari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Bu materiallar darslikdan materiallarni to'ldirishda ayrim xollarda esa illyustratsiya vazifasini o'taydi. Umumiy xolda aytadigan bo'lsak, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-xunar kollejlari o'tiladigan atlaslar va yozuvsiz kartalar tabiiy, iqtisodiy va ekologik ta'limning mohiyati mushunchalarini o'rganishda darsliklarda berilgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar xamda dunyoqarash g'oyalarini jamlagan xolda o'rganildi. Chunki bilim va tafakkur ekologik ta'lim mohiyatini yoritishda muxim bo'lib, mavjud ma'lumotlarni til vositasi bilan ifoda qiladi.

Ko'nikma esa mashq qilish natijasida beriladigan xarakterlar yig'indisidir. Bu iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi. Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-xunar kollejlari xamda oliy o'quv yurtlarda o'tiladigan atlaslar va yozuvsiz kartalar tabiiy, iqtisodiy va ekologik ta'limning mohiyati mavzusini o'rganishda o'quvchilar va talabalar o'z fikr va muloxazalarini amalda bajarishga intiladilar.

Ayniqsa geografiya fanlarini o'rganishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish tabiiy, iqtisodiy va ekologik ta'lim mohiyati tashqi mamlakatlar bilan tabiiy, iqtisodiy va ekologik soxada olib borilayotgan xamkorlik aloqalari xaqidagi bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va rejalar asosida tayyorlangan jadvallarni mustaqil to'ldirish orqali o'quvchilarda geografik ko'nikmalarni shakllantirish katta axamiyat kasb etadi. Malakaviy bitiruv ishimni yozishda menga yaqindan yordam bergan geografiya kafedrasi professor-o'qituvchilariga o'zimning minnatdorchiligimni bildiraman.

Bitiruv ishimni kelgusida umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari geografiya xamda amaliy geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish orqali tabiiy, iqtisodiy va ekologik ta'limning mohiyati mavzularini mustaxkamlashga xarakter qilaman.

## **I- bob. Maktab geografiya darslarida geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalarning ahamiyati.**

### **1.1 GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHDA ATLASLAR VA YOZUVSIZ KARTALARNING MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDAGI TUTGAN O'RNI.**

Mamlakatimiz o'z mustakilligiga erishgach respublika xo'jaligining barcha sohalarida bo'lganidek ta'limda ham tub islohatlar davri boshlandi.

Bu davr esa o'qituvchilarga ham ko'plab ma'suliyatni yukladi. Chunki mustaqillikkacha ta'lim tizimida asosan bir xillik hukmron edi. Yangi pedagogik texnologiya esa xar bir darsning bir-biridan qiziqarli o'tish imkoniyatini beradi. Xar bir darsning mazmun mohiyatidan kelib chiqib, darsda turli atlaslar va yozuvsiz kartalardan hamda didaktik tarqatma materiallardan foydalanish mumkin. Bunday dars o'tish jarayonida o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlashi talab etiladi. Bu talab esa darsning samaradorligini, uning sifatli bo'lishini, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini, birinchi galda maktab o'quv mashg'ulotlarini mustahkam egallab olishlarining manbaidir.

Har bir pedagogning ishga ijodiy yondashishini rivojlantirish juda muhimdir. Chunki dars jarayoni haryili bir xil ko'rinish, bir xil andoza, bir xil tipda emas, balki haryili har- xil usul va uslublardan qo'llagan holda tashkil etilishi lozim.

Yangi darsning mazmuni, egallagan qamrovi, unda ko'rgazmali qo'llanmalar va vositalarning ishlatilishiga qarab o'qituvchi turli atlaslar va yozuvsiz kartalarni hamda didaktik tarqatma materiallarni qo'llashi mumkin.

Bu esa o'qituvchining izlanuvchanligini, o'z ustida ishlashini, ijodkorligini, darsni yanada keng qamrovli va qiziqarli qilib o'tishda tajribasini oshiradi.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchining darslari xilma-xil bo'ladi. Bunda tasviriy vositalar va ko'rgazmali qo'llanmalarining ahamiyati katta. Masalan, o'qituvchibir darsda yangi mavzuni tushuntirishdan avval 5-6 minut tezkor savollar orqali o'quvchilar bilimini, o'tgan mavzu va yangi mavzu yuzasidan so'rab chiqadi,

o'zi fikrlarni to'ldiradi, o'quvchilarning diqqatini kartaga jalb etadi, doskaga chizmalar chizadi va hokazo.

Boshqa darsda o'qituvchidafilmlar ko'rsatishi, harbir kadrğa berilganiga nisbatan kengroq va to'liqroq izoh beradi, darslikda berilmagan yangi ma'lumotlarni aytib o'tadi, so'ngra darsni mustahkamlash uchun o'quvchilarni baxs munozaraga chorlaydi, ularning mustaqil fikrlarini tinglab, o'zi to'ldirib boradi.

Agar o'qituvchi o'z bilimini to'ldirib borishni to'xtatib qo'ysa, uning darslarida intizom yomonlashadi, darslari qiziqarsiz bo'lib qoladi, o'qituvchining obrusi o'z hamkasblari va o'quvchilar oldida keta boshlaydi.

Ko'p o'qituvchilar harbir darsini faqat mazmunli qilib emas, qiziqarli qilib ham o'tishga intiladilar. Bugungi kundagi zamonaviy darslarning talabi ham, mazmuni ham shunda. Chunki bugungi kun o'quvchilarining darsga chaqqonliklari, e'tiborlari, qiziqishlari nihoyatda katta. Bizning fanimizning bu boradagi imkoniyatlari nihoyatda ulkan darajada. Fanimizning o'ziga xos xususiyati ham qiziqarliligida bo'lsa ajabmas.

Buni biz hayotiy kuzatishlarimiz orqali ham tushuntirib, asoslab berishimiz mumkin.

Masalan, maktabni ancha ilgari bitirib ketgan kishilardan, maktab geografiyasi kursida nimalar esingizda qolgan deb so'rasak, ular sayyohlar haqidagi, tabiat sirlarini qanday ochilgan ekanligi haqidagi hikoyalarini, darsda ko'p kartochkalarga javob berganligini, turli xil krasvordlar echishgani, tabiatga bo'lgan ekskursiyalari haqida qiziqib aytib berishadi. Suhbat oxirida esa «Geografiya qiziqarli fan» degan gapni eshitamiz. Shunday ekan fanimizning yanada qiziqarli, samarador va albatta o'quvchilar yodida saqlanib qolishi uchun harakat qilishimiz lozim. Dars jarayonini yanada ko'proq ko'rgazmali qurollar, har-xil ko'rinishdagi kartochkalar, diagrammalar, testlar, krasvordlar, tezkor savollar, yozuvsiz xaritalar va hokazolar tarqatma materiallar bilan boyitib borishimiz kerak. Geografiya o'qitishda ko'rsatmalilik, ommaboplik va qiziqarli bayon etish muxim rol o'ynaydi.

N. N. Baranskiy hech qaysi o'quv fani geografiyachalik ko'rsatmalilik va qiziqarlilikka muxtoj emas, deb hisoblar edi.

Ko'rsatmalilik va qiziqarlilik o'qitishning barcha metodlarida o'qituvchi hikoyasida, suhbatida, og'zaki va yozma tekshirishda, ayniqsa sinfdan tashqari ishlarda muayyan o'rin tutadi.

Qiziqarlilik darsda ham, ishda ham, geografiya tugaragida ham, fakultativ mashqlarda ham, ayniqsa, o'lkashunoslik ishida hardoin qo'llanilishi kerak.

Atlaslar va yozuvsiz kartalardan hamda tarqatma materiallardan dars jarayonida foydalanishning ijobiy tomonlari shundaki, bu jarayon o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv materialini egallash shakllaridagi o'xshashlik va tafovut qiladigan muhitlarni chuqurroq anglab olishda hamda o'z o'qituvchilik faoliyatini muvofaqiyatliroq tashkil etishda yordam beradi.

Atlaslar va yozuvsiz kartalarni hamda tarqatma materiallarni, testlarni, diogrammalarni, ko'rgazmali qurolarni tayyorlash va ular bilan dars o'tish o'qituvchilardan ko'p vaqt va mahorat talab qilishi bilan birga o'quvchida ham zarur bilimlar bo'lishini taqazzo etadi. Atlaslar va yozuvsiz kartalardan hamda tarqatma materiallarni tayyorlashda o'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyati, aqliy darajasi, bajara olish qobiliyatini ham e'tiborga olish zarur. Chunki o'quvchilar qanchalik bilimli va zukko bo'lsalar darsda shuncha faol qatnashadilar va darsga qiziqishlariyanada ortib boradi. Atlaslar va yozuvsiz kartalardan hamda tarqatma materiallardan foydalanish o'quvchilarni faqat darsga qiziqishlarini emas, balki, ularning dunyoqarashini, ya'ni geografik dunyoqarashlarini, geografik madaniyatni shakllantirishda ham yordam beradi.

O'quvchilarning fanga bo'lgan geografik tushunchalarini shakllantirishda ham katta imkon beradi.

Geografik tushunchalarini shakllantirish jarayoni boshqarilishi xususiyatiga ega bo'lib, uni o'qituvchiamalga oshiradi. O'qituvchi qay yo'sinda va tartibda amalga oshirishi esa o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Geografik tushunchalar ta'lim jarayonida sekin-asta rivojlanadi. Darsni o'tish jarayonida esa shu narsaga e'tibor berish kerakki, dars ko'rgazmali qurollar,



kartalar va tarqatmalar bilan boyib borishi kerak. Fikrlar mujassamlashib ketmasdan balki, aniq va qisqa bo'lishi kerak.

Geografik ob'ektlarni ko'rgazmali qurolarsiz va kartasiz o'rganish ularga xos bo'lgan belgilarni ajratishni birmuncha qiyinlashtirdi. Shuning uchun dars jarayonida kartalarni o'qish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Darsda faqat tarqatma materiallar, o'yinlar, testlar va diagrammalar emas, balki kartalar va yozuvsiz kartalarning ham ahamiyati katta. Dars jarayonida atlaslar va yozuvsiz kartalarning hamda tarqatma materiallarning alohida-alohida shakllari va turlar haqida quyida, ya'ni keyingi boblarda alohida alohida to'xtalib o'tamiz. Xullas, atlaslar va yozuvsiz kartalarning hamda tarqatma materiallarning ahamiyati geografiya ta'limida nihoyatda katta ekan. Atlaslar va yozuvsiz kartalar hamda tarqatma materiallar o'quvchilarning mustaqil tayyorgarlik ko'rishlari, o'zlari ustida ishlashlari, qo'shimcha adabiyotlarni o'qishlari va izlanishlari uchun yordam beradi.

Dars jarayonidagi atlaslar va yozuvsiz kartalarga hamda tarqatma materiallarga esa yozma yoki og'zaki javob berish mumkin. Ayrim o'quvchilar tushungan mavzusini, olgan bilimlarini aytib berolmaydilar, yozma javob berganda esa fikrini jamlab batafsil bayon qiladilar.

Atlaslar va yozuvsiz kartalar hamda tarqatma materiallar, ko'rsatmali qurollar bilan birgalikda rahamli materiallardan ham dars jarayonida foydalanadilar. Raqamli materiallar ham bilim olishning asosiy manbasiga kiradi. Raqamli materiallar geografik raqamlarni eslab qolish, yodda saqlashni, geografik birliklarni o'rganishda o'quvchilarga yordam beradi.

## **1.2 MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHDA ATLASLAR VA YOZUVSIZ KARTALARDAN FOYDALANISHNING MAQSADLARI VA VAZIFALARI.**

**A) Talimiy maqsad.**

Umumta`lim maktablarida geografiya fanlarini o`qitish jarayonida o`quvchilar atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish davomida atlaslar va yozuvsiz kartalarning xususiyatlarini, ularning turlarini sinflar bo'yicha turli darajada tarkib topganligini o`rganadilar. Ayniqsa, umumta`lim maktablarining 8 – sinflarda “O`zbekiston axolisi” mavzusini o`qitish jarayonida o`quvchilar O`zbekiston axolisi soning yillar davomida o`sishi xususiyatlarini, axolining turli millatlardan tarkib topganligini, yoshlar va bolalar axolining ko`pchilik qismini tashkil etganligini, iqtisodiy faol axoli mehnat resurslari tushunchalari va ularning davlat, nodavlat sektorlaridagi nisbatini, insonning moddiy nemat ishlab chiqaruvchi va moddiy nemat chiqarmaydigan tarmoqlarda bindligi va axoli manzilgoxlarida kishilarning yashash tarsi va nisbatini bilib oladilar. O`qitish jarayonida ko`llaniladigan atlaslar va yozuvsiz kartalar, jadvallar, grafiklar va rasmlar bilan ishlashni, ularni taxlil qilib hulosa chiqarishni o`rganadilar. Bu mavzu maktab geografiya talimida iqtisodiy – ijtimoiy geografiyaning deyarli boshlanish mavzularidan bo`lganligi sababli o`quvchilar ongida iqtisodiy geografiyasiga oid yangi atamalarni, tushunchalarni shakllantirish lozim. Axolining ijtimoiy geografiyaning eng asosiy o`rganish ob`ekti ekanligini, barcha soxalar inson omili bilan bogliqligi, iqtisodiyotining asosi va yaratuvchisi inson ekanligi to`risida bilim, ko`nikmalar xosil qilish lozim.

**B) Tarbiyaviy maqsad.**

Umumta`lim maktablarida geografiya fanlarini o`qitish jarayonida o`quvchilar atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish jarayonida o`quvchilarga 8 – sinflarda “O`zbekiston axolisi” mavzusini o`qitish jarayonida o`quvchilar qalbida O`zbekiston axolisini turli millatlaridan tashqil topganligi, bu millatlar tinch-totuv, farovonlikda turmush kechirishi, axolining milliy qadriyatlarini asrlar mobaynida iftixor bilan davom etirayotgarliklarikabi tushunchalar shakllantiriladi. Axolining qadimdan qishloq joylarida yashashi, ona yer mexr-muxabbat xislari, Vatanni qadrlash, chetga maxalliy xalqning kam ko`chib ketish xususiyatlari yoritilib vujudga kelish va uyerda ilm-ma`rifat,

ma`naviyatning, yashash tarzining o`ziga xos xususiyatlari to`risida tushunchalar xosil qilinadi.

Umumta`lim maktablarida geografiya fanlarini o`qitish mobaynida o`quvchilardan ona xalqqiga, vatanga mexr muxabbat, insonni qadrlash tuyg`ulari, millatlararo bag`rikenglik g`oyalari tarbiyalanadi.

#### V) Rivojlantiruvchi maqsad.

Umumta`lim maktablarida geografiya fanlarini o`qitish jarayonida o`quvchilar atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish jarayonida o`quvchilarga 8 – sinflarda “O`zbekiston axolisi” mavzusini o`qitish jarayonida o`quvchilar qalbida quyidagi bilimlar rivojlantiriladi:

- Axoli geografiyasining asosiy tushunchalari.
- Axolining soni va yillar davomida o`zgarishi.
- Axolining joylashishi, migratsiya, emigratsiya, immigratsiya tushunchalari.
- Mexnat resurslari ishga yaroqli axoli, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish soxalari.
- Axolining milliy, diniy, jinsiy, til, yosh va ta`limi buyicha tarkibi tushunchalari.
- Urbanizatsiya, agromegratsiya tushunchalari.
- Axolining qishloq va shaxarlarda yashash xususiyatlari va xokazo.

#### G) Milliy istiqlol g`oyasini singdirish.


Milliy istiqlol g`oyasini singdirish borasidagi birinchi navbatda qilinadigan ishlar ysh avlodni vatanparvarlik, el- yurtga sadoqat ruhida tarbiyash, ularning qalbiga inconparvarlik va inconiylik fazilatlarini payvand qilishdan iboratdir.

Har bir o`quvchi geografiya fanlarini o`qitish jarayonida atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish mavzusini o`rganishda o`sha davrda yashab ijod qilgan olimlar, sayohatchlarning qilgan qahromonliklarini, qilgan ijobiy tadqiq ishlari alohida e`tiborga olinib o`rganish alohida kasb etadi. Geografiya fanlarini

o`qitish jarayonida atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish mavzusini o`rganishda geografik atlaslar va yozuvsiz kartalarning hilma-hilligi, ularda davlatlarning geografik o`rni, chegaralari, foydali qazilmalari, tabiiy sharoiti va resurslarining hilma-hilligi, ularda iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini kelajak avlodga targ`ibot qilish, tushuntirish va o`rganishni maqsad qilib qo`yish lozim.

Geografiya fanlarini o`qitish jarayonida atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish mavzusini o`rganishda har bir o`quvchi o` oldiga geografik atlaslar va yozuvsiz kartalarda berilgan tabiiy resurslarni qadirlash va uni asrab avaylab foydalanish, kelajak avlodning o`zi bilishi, tushinishi, qadrlashi hamda undan samarali foydalanish kabi tushunchlarni chuqur his qilmog`i lozim.

# TABIYI-GEOGRAFIK RAYONLASHTIRISH KARTASI



### SHARTLI BELGILAR

#### I Turar tabiiy-geografik kichik oblasti

1. G'arbiy Tyan Shan tog'lar
2. Janubiy Tyan Shan tog'lar
3. Panit va Badaxshon
4. Janubiy yosh tog'lar
5. Donqum
6. Qizilqum
7. Kasbiy bo'yi tekisligi (Qizilqum)
8. Koxizm pastlikligi (Qizilqum)
9. Bodaj-Darabul qiliqi
10. Tog' o'li va tog' orasig' tekisliklari
11. Tupan Amudaryo

#### II Qozog'iston tabiiy-geografik kichik oblasti

1. Sharqiy Qozog'iston tog'lar
2. Shimoliy Tyan Shan
3. Markaziy Tyan Shan
4. Qozog'iston past tog'lar
5. Uchiyurt platosi va Mang'itshoq yam o'ral
6. To'rtiy plato
7. Darabuliy qumli cho'l-lar
8. Janubiy Qozog'iston cho'llari

Tabiiy-geografik chegaralar  
 Tabiiy-geografik rayonlar chegaralari

Maqsadli 1:13 400 000

### 1.3 MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN ATLASLAR VA YOZUVSIZ KARTALARNING TURLARI.

Geografik xaritalarda turli tuman voqea va hadisalar tasvirlangani uchun, ular juda xilma-xil bo'ladi. Xaritashunoslikda quyidagi tushunchlar uchraydi:

Tarx (plan)-joyning yirik miqyocda (5000 va undan kattaroq) tuzilgan chizmasidir. Chizmada maydoni uncha katta bo'lmagan kichik-kichik joylar tasvirlanadi.

Xarita- Yer yuzasini kichraytirilib va umulashtirilib shatli belgilar bilan tekislikka tushirilgan tasviridir. Ular tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy voqea va hodisalar tasvirlanadi.

Aerofotosurat-tayyora va boshqa o'zi ular asboblari yordamida olingan Yer yuzaning yoki uning bir qismining tasviridir. Ular orqali joyning tuzilishi, rel'efi, o'simlik qoplami, yo'llari, qishloqlar, jixozlar va korxonalarining joylanishi aniqlanadi.

Kosmosurat- Yerning va boshqa sayyoralarning kosmik kemalar yordamida olingan tasviridir. Ular fanning va xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi. Har bir tarx, xarita va kosmo va aerosurat ma'lum bir miqyosda tuziladi.

Miqyos-bu xaritada chiziqning uzunligini Yer yuzasidagi shu chiziqqa mos keladigan haqiqiy uzunlikka nisbatidir. U xaritada tasvir necha marta kichraytirilganini ko'rsatadi. Masalan xaritada daryoning uzunligi 1 sm, haqiqiy uzunligi esa 10 km, yoki 1000000 sm. Demak xaritaning miqyosi 1: 1000000. Miqyoslar sonli chizikli va so'zli bo'ladi. Sonli miqyos kasrdan iborat, uning surati 1-ga teng maxraji esa xaritada tasvir necha marta kichraytirilganini ko'rsatadigan son bo'ladi.

Masalan. 1: 1000 yoki  $\frac{1}{1000}$  bu tasvirni ming marta kichraytirilganini ko'rsatadi. Chizikli miqyos-bu teng bo'laklarga bo'lingan to'd'ri chiziqdir. Har bir bo'lak qancha masofaga tengligi uning ustiga yozib quyiladi. So'zli miqyos

xaritada 1 sm masofa haqiqatd qanchaga tengligini ko'rsatadi. Masalan 1 sm dan 10 kmgacha.

Loyihalar (proektsyalar) – bu Yer yuzasining xaritada tasvirlash usulidir. Yer dumaloq bo'lganligi tufayli uni tekislikda tasvirlanayotganda ma'lum bir xatoliklarga yo'l quyiladi. Bunday xatoliklarga asosan maydonni uzunlikni va burchaklarni tasvirlayotganda yo'l quyiladi. Shuning uchun turli xil (teng burchakli, teng maydonli, teng masofali va aralash loyixalar) qo'llaniladi.

Shartli belgilar- voqea va hodisalarni ma'lum bir belgilar yordamida xaritada tasvirlanishidir. Miqyosli shartli belgilar yordamida voqea va hodisalar haqiqiy o'lchamlari bilan tasvirlanadi. Miqyossiz shartli belgilar bilan, xaritalarning miqyosida ko'rsatib bo'lmaydigan voqra va hodisalar tasvirlanadi (TES, qon, shakllar, axoli yashaydigan joylar). Chiziqli shartli brlgilar bilan daryolar, yo'llar, chegaralar ko'rsatiladi. Tushuntirish belgilari bilan daryo oqimining yo'nalishi, o'rmondagi daraxtlarning turlari ko'rsatiladi. Bundan tashqari yozuvli, harfli, sonli shartli belgilar ham bo'ladi.

Xaritada voqea va hodisalar quyidagi usullar bilan tasvirlanadi:

- belgilar usuli –miqyosda tasvirlab bo'lmaydigan narsalar, voqea va hodisalar tasvirlanadi;
- chiziqli usuli-asosan uzunlik bo'yicha joylashgan daryo, yo'l va chegaralar tasvirlanadi;
- rang berish usuli- voqea va hodisalarni maydon bo'yicha tarqalishini tasvirlashda qo'llanadi (o'simlik, tuproq, iqlim xaritalari):
- teng qimmatli chiziqlar usuli – bir xil qiymatga ega bo'lgan voqea va hodisalar tasvirlanadi (harorat, balandlik, aholi zichligi):
- bog'langan diagrammalar usuli – ma'lum bir joydagi meteorologik stahtsiyada haroratni mavsumiy o'zgarishini, yog'in va shamollarni taqsimlanishini tasvirlashda qo'llaniladi;
- chgara usuli – bir xil voqea va hodisalarni tasvirlashda qullanadi, foydali qazilmalar hayvonlar va qishloq xo'jaligi xaritalari.

- nuqta usuli – narsalarni, voqea va hodisalarni tarqoq holda joylashishini tasvirlashda ishlatiladi. Har bir nuqtada ma'lum bir miqdorni brradi. Masalan bitta nuqta 200 bosh sigir;

- harakat belgilari usuli – voqea va hodisalarni harakat yo'nalishini ko'rsatadi (daryo oqimi, shamol va oqim yo'nalishi, yuk tashish yo'llari).

Xaritalar miqyosiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- tarxlar, miqyosi 1: 5000 va undan katta:
- yirik miqyosli xaritalar 1:10000 dan 1: 2000000 ga;
- o'rta miqyosli xaritalar 1: 2000000 dan 1: 1000000 ga;
- mayday miqyosli xaritalar 1: 10000000 dan kichik.

Xaritalar ularda tasvirlangan maydonning ko'lamiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- yulduzlar xaritasi;
- sayyoralar va Yer xaritasi;
- yarim sharlar xaritasi;
- quruqlik va okeanlar xaritalari;
- tabiiy geografik o'lkalar va dengizlar xaritalar;
- mamlakatlar xaritalari;
- ma'muriy birliklar xaritalari;
- maxsus xududlar xaritalari (qo'riqxonalar, sayoxatbop joylar);
- shaharlar va aholi punktlari xaritalari;
- shahar va viloyat tumanlari xaritalari;

Mazmuniga ko'ra xaritalar. Umumgeografik va mavzuli xaritalarga bo'linadi. Umumgeografik xaritalar o'z navbatida yana

- a) topografik (1: 1000000 va undan katta);
- b) umumtopografik (1: 2000000 dan 1: 1000000 cha)
- c) umumtasavvur (obzor) xaritalarga bo'linadi (miqyosi 1: 1000000 kichik).



Mavzuli xaritalar tabiiy va iqtisodiy (iqlim, tuproq, o'simlik, qishloq xo'jalik, sanoat va x.k) xaritalarga bo'linadi.

Vazifasiga ko'ra xaritalar quyidagilarga bo'linadi:

a) ilmiy xaritalar; b) madaniy va tashviqot xaritalari; c) texnik xaritalar (kocmik, havo, dengiz, yo'l va muxandislik xaritalari); d) o'quv xaritalari; g) sayoxat xaritalar;

Tuzilishiga ko'ra xaritalar uch turga bo'linali:

a) tasviriy xaritalar aloxida voqealar xossalarini tasvirlaydi. Masalan havo harorati, yog'inlar va bosim xaritalari); b) jamlama xaritalar (ma'lum bir kodisaning hamma o'lchovlari birga tasvirlanadi). Masalan bitta xaritada shamol va bosimni tasvirlash mumkin; c) yakuniy xaritalar bir – biri bilan o'zaro bog'langan xodisalar bir butun holda tasvirlanadi (iqlim mintaqalari xaritasi).

Geografik atlaslar va ularning turlari.

Atlaslar – to'la va aniq ma'lumotga ega bo'lgan, yagona dastur asosida tuzilgan, tartibga solingan xaritalar to'plamidir.

“Atlas” atamasi Flamand xaritashunosi Merkator tomonidan kiritilgan. U o'zi tuzgan xaritalar to'plamini (1595 yili) Liviyaning afsonaviy qiroli Atlas nomi bilan ataydi. Xaritalar to'plami birinchi marta II – asrda Klavdiy Ptolomey tomonidan tuzilgan. Atlaslar egallagan maydoniga qarab, Sayyoralar, dunyo, materiklar, okeanlar, o'lkalar, davlatlar, viloyatlar atlaslariga bo'linadi. Mazmuniga qarab umumgeografik va mavzuli atlaslarga bo'linadi. Vazifasiga ko'ra ilmiy ma'lumotli ommabop (o'lkashunoslik), o'quv, sayyox va yo'l atlaslariga bo'linadi

a. Globuslar va ularning turlari.

Globus (lotincha globus - dumaloq) Yerning kichraytirilgan nusxasi, unda Yer yuzasi, materiklar va okeanlar, tog'lar va tekisliklar shakli xatosiz, aniq va to'g'ri tasvirlanadi. Birinchi marta globus Beruniy tomonidan X asrda, Bexaym tomonidan XV asrda yasalgan.

Globuslar miqyosiga ko'ra mayday (1: 83000000), o'rta (1: 30000000) va yirik globuslarga bo'linadi.

O'quv va boshqa maqsadlar uchun yirik globuslar yasaladi. Shunday globus fakul'tetimizda 1982 yili o'rnatilgan (yuzalama miqyosi 1: 70000000, tik miqyosi 1: 1000000), og'irligi 500 kg, balandligi 2,5 m diametric 2 m.

### 1. Xaritalar bilan ishlash.

Xaritalar bilan ishlash asosan geografik bayon va kesmalar tuzush maydon, uzunlik va burchaklarni aniqlashdan iborat.

Geografik bayonlar umumiy va maxsus turlarga bo'linadi.

Umumiy bayonlar quyidagi tartibda tuziladi; geografik joylanishi, tektonik tuzilishi, rel'efi, iqlimi, ichki suvlari, o'simligi, tuprog'i, iqlim mintaqalari va zonalari, aholisi, sanoati, qishloq xujaligi va iqtisodiy xududlari. Maxsus bayonlar tabiiy va iqtisodiy sharoitning ma'lum bir qismini ta'rifini beradi (masalan iqlim, tuproq, chorvachilik, bog'dorchilik va h.k.)

Xaritalar yordamida umumiy va maxsus kesmalar tuzish mumkin (kengliklar va uzunliklar bo'yicha)

Masofani miqyos orqali aniqladi. Koordinatalarni topish.

Xarita bilan ishlash quyidagi tartibda olib borilishi kerak:

- Yer yuzasi elementlari, rel'ef shakllari, vulqonlar, dengiz, qo'ltiq, byloqlar, daryolar, ko'llar bilan o'quvchilarni tanishtirish:

- o'quvchilarni xaritani shartli belgilari bilan tanishtirish:
- geografik borliqni kattaligini ko'z bilan chamalab aniqlashga o'rgatish:

- geografik koordanatalarni mashq qilishga o'rgatish:

- turli miqyosdagi xaritalardan geografik borliqni topishni o'rgatish.

Kartani chizih uchun uning belgilari va miqyosi bilan tanishish kerak.

Kartani o'qish. Kartalarni solishtirish Yozuvsiz xarita bilan ishlash.

### 6. Globus bilan ishlash

Globus bilan V-sinf dan boshlab ishlanadi. Tabiatshunoslok darsida yerning sharsimonligi, qutb, meridian, parallel va ekvator haqidagi tushunchalar. Yerninh sutkalik va yillik harakati o'rganiladi. Yirik geografik borliqlarni joylanishi aniqlanadi. Tabiiy geografiya kursida globus yordamida quyidagi masalalarni hal

etish mumkin: Yerning umumiy ko'rinishini tasavvur etishda. Yerning sharsimonligini isbotlashda materik va okeanlarning kattaligini aniqlashda: Qutblar, ekvator, qutb chizig'i, meridian, parallelni o'rganishda, va tunni hosil bo'lishini tushuntirishda. Yer o'qining orbita yuzasiga og'ganligini aniqlashda, quyosh nurlarini. Yer yuzasiga turli burchakda tushishini isbotlashda. Yer sharining issiqlik mintaqalarini o'rganishda, pasat va muassonlarni o'rganishda, degiz oqimlarini tushuntirishda, joining geografik o'rnini aniqlashda. Xovo va suv yo'llarini uzunligini ko'rsatishda. Arktika va Antartikani tushuntirishda ishlatiladi.

Geografiya ta'limida ham boshqa ta'lim yo'nalishlaridagi kabi atlaslar va yozuvsiz kartalarning har xil turlaridan foydalanish mumkin. Atlaslar va yozuvsiz kartalarning tabiiy, iqtisodiy, siyosiy, axoli, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, o'quv ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanish keng tavsiya etiladi.

Quyida esa o'sha atlaslar va yozuvsiz kartalarning turlariga, ayrimlariga bafurja, ayrimlariga qisqa ta'rif berib o'taman.

Birinchi navbatda eng ko'p qo'llaniladigan atlaslar va yozuvsiz karta turlaridan tabiiy va iqtisodiy kartalarga ta'rif berib o'tamiz. Atlaslar va yozuvsiz kartalarni iqtisodiy, tabiiy, amaliy geografiyadan yoki bo'lmasa alohida biror mavzu yuzasidan tayyorlash mumkin.

Geografiya darslarida o'quvchilar bilan geografik atlaslar va yozuvsiz kartalarni yaxshiroq o'rganish maqsadida ham kartochkalardan foydalanish mumkin. Buning uchun iqtisodiy kartaning yoki yozuvsiz kartaning biror qismi yoxud bir mamlakatning iqtisodiy yoki yozuvsiz kartasi yopishtirilgan bir necha kartochkalardan dars davomida foydalaniladi. Kartochkalarda yopishtirilgan kartaning mazmuniga qarab, yozuvsiz kartalar bo'lsa, mavzuning mazmuniga qarab bir necha savollar yozilgan bo'ladi. Kartochka olgan o'quvchi bir necha minut davomida tayyorlanib, savollarga javob berishi lozim, jumladan kartochkada quyidagicha savollar bo'lishi mumkin.

1. Kartochkada qaysi iqtisodiy rayon tasvirlangan.
2. Sanoat belgilaridan foydalanib, asosiy kimyo sanoati markazlarini belgilang.

3. Qazilma boyliklarining kesma belgilarini yozuvsiz kartaga yopishtirib chiqing.

Kartochkalardan foydalanishning bu usuli o'quvchilarning kartani qanchalik o'rganganligini va ularning iqtisodiy kartalar bilan ishlay olishlarini aniqlash uchun katta yordam beradi. Ayrim vaqtlarda iqtisodiy karta yoki yozuvsiz kartadagi geografik ob'ektlarni sonlar bilan belgilab, shu joylarning nomini iqtisodiy ta'riflab berishni talab qilishi mumkin.

Geografiya darslarida iqtisodiy va yozuvsiz kartalar bilan ishlash o'quvchilarning bilim darajasini, tafakkurini va mustaqil ishlash qobiliyatini o'stirishga katta yordam beruvchi omillardan biridir.

Tabiiy geografiyada asosan topshiriq-kartochkalardan foydalaniladi. Topshiriq- kartochkalar tarqatiladigan materiallar turlaridan biri bo'lib, o'qitish jarayonini aktivlashtirishda, o'quvchilar bilimini samaraliroq hisobga olishda o'qituvchiga yordam beradi. U darsda so'raladigan o'quvchilar sonini ko'paytirishga imkon tug'diradi. Umumlashtiruvchi takrorlash darslarida topshiriq-kartochkalardan foydalanish mazkur mavzudan nechta kartochka tayyorlangan bo'lsa, shuncha o'quvchidan so'rab kurishga imkon beradi. Bundan tashqari, o'qituvchi sharoitga qarab, o'quvchiga kartochkadagi hamma savolga emas, balki savollarning biriga daftarda yoki varaq qog'ozda yozma javob berishni buyurish mumkin.

O'quvchilarga kartochka bilan ishlashni buyurishdan oldin o'qituvchi bunday ishni bajarish tartibi-qoidasi bilan o'quvchilarni tanishtirishi lozim. Shuni unitmaslik kerakki, kartochalar bilan ishlaganda atlasdan foydalanish mumkin, javoblar qisqa bo'lishi kerak. Agar topshiriq yozma javobni talab etsa, savollarni daftarga ko'chirib yozib o'tirmay, savollarning tartib, nomerini yozib, qisqacha javobni yozish kifoya.

## GEOGRAFIK KARTALAR VA GLOBUS BILAN ISHLASH.

Ta'lim to'g'risidagi Qonun hamda Kadrlar tayorlash milliy dasturi shuningdek, 1999 yil 16-avgust O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

390-sonli Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi qarori shu asosda qabul qilingan Geografiya ta'limini ilmiy–uslubiy jihatdan qayta ko'rish kontseptsiyasi maktab geografiya ta'limini tubdan isloh qilish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Maktab geografiya kurslari ham mazmunan, ham struktura jihatidan yangilandi. O'quvchilarning maktabda o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma hamda malakalarining me'yori davlat standartlari darajasida belgilandi. Yuqorida tilga olingan me'yoriy hujjatlar barcha umumta'lim fanlari qatori maktab geografiya kurslarida o'quvchilarning jonli geografik mushohadaga chorlovchi, o'quvchilarning mustaqil fikrlarini tarkib topdirishga qaratilgan ilg'or ta'lim usullarini ishlab chiqish hamda amalda qo'llash zaruratini keltirib chiqardi.

Karta va globus bilan ishlash mavzusi mohiyati jihatdan geografiya ta'limidagi zaruriy o'quv vositasi hisoblangan geografik karta hamda globusdan foydalangan holda o'quvchilarga puxta geografik bilim va o'quv malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Ma'lumki, maktabda tabiiy geografiyaning boshlang'ch kursi barcha o'qitiladigan geografiya fanlarining poydevori hisoblanadi. Geografiya ta'limidagi asosiy, bosh ilmiy tushunchalar xuddi mana shu kursda o'quvchilarda shakllanadi. Geografik karta hamda globus mana shu tushuncha va qonuniyatlarni o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirishga xizmat qiladigan zaruriy o'quv vositasi ekanligini ta'kidlab o'tish zarur.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari tabiiy geografiyasi kursi hamda unda o'rganiladigan har bir mavzu yuzasidan o'quvchilar aniqlay olishi, o'lchay bilishi, hodisalarning sabab-oqibat bog'lanishlarini mohiyatini anglab bilish hamda ular bilan bog'liq tegishli amaliy o'quv malakalarini o'quvchida shakllantirishni zarur qilib qo'ygan bir paytda, karta va globuslardan foydalanish ayniqsa katta ahamiyat kasb etmoqda. Biz mazkur mavzuni yoritishda bir qator ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlili asosida, o'quvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishga harakat qildik. Karta va globus bilan ishlashda maktabda to'plangan ko'p yillik tajribamizga asoslandik.

Geografiya ta'limini kartasiz tasavvur qilish qiyin. Karta geografiya fanidagina emas, balki insoniyatning amaliy faoliyatida ham cheksiz ahamiyatga ega. Chunki biror bir geografik tadqiqotni, inson turmush faoliyatini kartasiz tasavvur etish qiyin.

Uchuvchi, quruvchi, tuproqshunos, ekolog, agronom, injener, sayyoh, kosmonat, harbiy soha mutaxassisi kartasiz ish ko'ra olmaydi. Ta'lim jarayonida kartalar ta'limiy va tarbiyaviy vazifani bajarada. O'quvchilar karta bilan pastki sinflardan tanisha boshlaydilar. Karta geografik ob'ektlar joylashgan o'rnini ko'rsatibgina qolmasdan, balki hodisa va voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni ham ifodalaydi. Geografiya ta'limida qo'llaniladigan kartalar ko'rsatmali qurol va geografik bilim manbai sifatida qo'llaniladi. Kartani bilish va undan foydalana olish deganda undan xilma-xil ma'lumotlarni, xususan tabiiy va iqtisodiy geografik ma'lumotlarni anglab olishga tushuniladi.

Kartaning eng muhim xususiyatlaridan biri bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo'lmagan hodisalarni modellashtirishdan iborat. Geografiya o'qitish metodikasi nuqtai nazaridan 4 ta vazifani bajaradi.

1. Karta o'rganish ob'ekti bo'lib ximat qiladi.
2. Karta ko'rzagmali qurol bazifasini bajaradi.
3. Karta geografik hodisalarni o'rganishda bilim manbai bazifasini bajaradi.
4. Karta geografik ta'limida psixologik-pedagogik vazifasini, ya'ni geografik bilimlarni egallab esida saqlab qolish vazifasini bajaradi.

O'quvchilar tabiiy geografiyani o'rganish jarayonida juda ko'p geografik terminlar, atoqli nomlar haqida aniq tasavvur va tushunchalarga ega bo'ladilar. Bu fanni o'rganishda o'quvchilar geografik kartani o'qishga o'rgatiladi. Chunki o'quvchilarning bunday malakaga ega bo'ladilar. Bu fanni o'rganishda o'quvchilar geografik kartani o'qitishga o'rgatiladi. Chunki o'quvchilarning bunday malakaga ega bo'lishlari o'z nabatida ularning budan keyingi geografik bilimlarini o'zlashtirishlarida muhim rol o'ynaydi.

Geografik kartani mustaqil o'qiy olish malakasi faqat geografik fanini chuqur o'zlashtirishda emas, balki insonning butun aqliy taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. O'rta maktabini bitirgan yoshlar kelajakda kim bo'lishdan qat'i nazar, geografik kartani yaxshi bilsa, u biron kitob, maqola va gazeta xabarlarini o'qiyotgan vaqtda, radio tinglaganda, kinofil'm yoki televizor ko'rayotganda shu voqealar yer sharining qayerida sodir bo'layotganligini aniq tasavvur etadi.

Geografik kartalar ularning ta'limdagi ahamiyati haqida juda ko'p ibratli fikrlar geograf-olimlar tomonidan aytilgan. Chunonchi, E.N.Kabanova- Mellerning fikricha Geografik karta yer sharining formasini mayda detallarsiz umumlashtirib beradi. Geografik kartada turli ob'ektlar ma'lum masshtabda va ma'lum tartibda tasvirlanadi –deb ta'riflaydi.

A.A. Polovinkin Geografiya va geografiya kartasi bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Kartasiz geografiya bo'lmaydi va bo'lishi mumkin emas-deb bejiz aytmagan.

V.L.Budanov Har bir ishning boshlanishi vs yakunlanishi geografik karta bilan bo'ladi- deb ta'kidlagan edi.

N.N.Baranskiy Karta geografiyaning ikkinchi tilidir-deb aytgan fikrlari geografiya ta'limida kartaning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Geografiya o'qitish sohasida xizmat ko'satgan metodist olimlardan V.P.Budanov, V.A.Gruzinskaya, N.N.Studenseov va boshqalar geografik kartani o'qishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab, tegishli ko'rsatmalar berishgan. V.P.Budanovning ta'kidlashicha kartadagi geografik joy real voqelikdagi prototipiga mumkin qadar o'xshash bo'lishi kerak. Shundagina o'quvchilar kartaga qarab o'sha real voqelikni aniq tasavvur eta oladilar.

Tajribali geografiya o'qituvchilari kartaga tasvirlangan joylarni o'quvchilarga tasavvur ettirishida turli ko'rgazma qurollardan samarali foydalanadilar.O'quvchilar tabiiy geografik kartani ma'lum darajada o'zlashtirib olganlaridan so'ng ular kartaning biror joyi bo'ylab xayoliy sayyohat qila oladigan bo'ladilar. Shuning uchun karta avvalo yer yuzini yaxlit holda tasavvur ettirgandan so'ng keyingi bilimlar uchun zamin hosil bo'ladi, deb hisoblaymiz. Bu jihatdan O.I.Galkinaning

kartani o'rganishda oddiydan murakkabga yondoshish prinsipi, A.N.Turpanov o'quvchilar bilan o'tkazgan ilmiy-tadqiqot ishlarida geografik kartadagi voqeliklarni shartli belgilar asosida tasvirlanishida o'quvchilarning faol bilim olishga intilishi asoslangan.

A.I.Sokolovning fikricha o'quvchilar ongida geografik kartada ko'rsatilgan ob'ektlarning (orol yoki yarim orol, dengiz, materik va xokazolar) shakllar kartani o'qishda asosiy yo'l ko'rsatgich bo'lib qolgan.

M.Vohidov kartada berilgan geografik nom va terminlarni o'quvchilar uzoq vaqt esda saqlab qolishlarini tajribada aniqlagan.

Shunday qilib, psixolog va metodistlarning geografik ob'ektlarning nomlarini va ulning kartada joylashgan o'rnini yaxshi eslab qolish, geografik kartani mustaqil o'qiy olish malakasini hosil qilish masalalariga oid bir qancha ishlarining tahlili kartaning geografiya ta'limining boshlang'ch kursi o'quvchilarning puxta geografik bilimlarini yanada puxtalashtiradi.

Tabiiy georafidagi mavzularini o'rganinishda o'quvchilarning kartani o'zlashtirishining psixologik asoslari.

Maktabda o'qitiladigan tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursi o'quvchilarda geografiyadan ma'lum bilimlar sistemasini hosil qiladi. Bu jihatdan olganda geografiyaning boshqa bir qator predmetlardan deyarli farqi yo'q. Faqat geografik tushunchalar muqarrar ravishda karta bilan bog'lab hosil qilishiga ko'ra boshqa fanlardan farq qiladi.

Tabiiy geografiya kursi yer sharidagi eng asosiy geografik ob'ektlar va ulaning kartada joylashgan o'rinlarni o'quvchilarga umumiy tarzda sistemali ravishda tushunyiriladi. Masalan, tabiiy geografiyani o'rganish jarayonida o'quvchilar asosan quyidagi bilimlarni o'zlashtirib oladilar.

1. Yer qobiqlari to'g'risida (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera to'g'risida) bir butun tabiatning asosiy qismlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar, ularni taqiq qilish haqidagi ilk ilmiy tasavvurlarga ega bo'ladilar.



2. O'zi yashab turgan jildning sharoiti xususiyatlari (rel'efi, suvlari, iqlimi, o'simlik va hayvonot olami) haqida muayyan tasavvur va tushunchalar hosil qiladilar.
3. Joy rejasi, gulobus va kartada yerning tasvirlash xususiyatlarrini o'rganishga doir tushuncha hamda qonuniyatlarni o'zlashtiradilar.
4. Umumiy geografik tasavvur va tushunchalar asosida har bir geografik ob'ektlar va ularning kartada joylashgan o'rnini mukammal bilib olishlari ko'zda tutiladi.

Geografiyadan davlat ta'lim standartlari talabalariga muvofiq geografik bilimlar sistemasi quyidagi asosiy tushunchalardan hosil qilinadi.

1. Umumgeografik tushunchalar (masalan, pasttekisliklar, tog', daryo, ko'l, dengiz, okean va boshqalar). Bunday tushunchalar yakka tasavvurlarni umumlashtirish asosida tarkib topadi.
2. Yakka yoki alohida olingan geografik tushunchalar (qit'alar, shaharlar, orollar, yarim orollar, daryo va ko'llarning nomlari). Ana shu geografik nomlar o'rtasida kartani o'qishda shu nomlarni belgilovchi joylarni kartadagi joyini bilib oladilar.
3. Mavhum tushunchalar (masalan, yer o'qi, meridianlar, paralellar, geografik kenglik va uzoqlik, ekvator va hokazolar) ham geografik kartani o'qishdagi yordamchi omillar hisoblanadi.

Tabiiy geografiyani o'qitishda o'qituvchilar tomonidan regional tushunchalarning o'zlashtirilishi katta ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilarning tabiiy geografiyadan olgan bilimlarini bir qismi regeonal xususiyatlar bilan bog'liq.

Shuni aytib o'tish lozimki, regeonal tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni ancha murakkab xarakterga ega. O'z navbatida regeonal geografik tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni har doim ma'lum miqdordagi konkret geografik ob'ektlarning nomlarini hamda ularning geografik kartadagi fazoviy o'rinlarini eslab qolish va tasavvur etishdan boshlanadi. Regeonal tegishli geografik ob'ektlarning nomlarini mustahkam egallab olmasdan turib geografik tushuncha haqida to'liq fikr yuritib bo'lmaydi. Shuning uchun ta'lim jarayonida eng muhim geografik nomlarni

o'quvchilar ongiga cingdirib borish geografik karta bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi.

Demak, o'quvchilar geografik kartani o'rganishlari davomida ularning ongida ikki tomonlama asossiyalar hosil qilindi.

Birinchidan, har bir geografik ob'ekt nomining strukturasi o'ld assotsiyalar hosil qilinadi. Ikkinchidan, har bir geografik nomning kartada joylashgan o'rniga assotsiya hosil qilinadi. O'qituvchi o'quvchida har bir geografik ob'ektganisbatan ana shunday murakkab assotsiya hosil qilsa, oquvchilarning geografiyadan o'zlashtirgan bilimlari to'la va mustahkam bo'ladi. Yuqoridagilardan ravshanki, tabiiy geografiya darslarida kartani o'zlashtirishning muhim psixologik xususiyatlaridan biri o'quvchilar ongida har bir geografik ob'yektning nomi bilan uning kartada o'rnashgan o'rnini o'rtasida mustahkam assotsiyalar hosil qilishdan iboratdir. Bundan tashqari shuni ham e'tiborda tutish lozimki, o'quvchilar har bir geografik ob'yektning nomini alohida-alohida emas, balki boshqa bir qator nomlar bilan mazmunan hamjihatlikda o'rganadilar. Shuning uchun tabiiy geografiyani o'rganish davomida o'quvchilar ongida asosiy geografik nomlarning shu ob'yektlarni kartada joylashgan o'rnini bilan bog'liq bo'lgan yagona tizim vujudga keladi. Demak, ob'yekt nomi va uni tabiiy kartadagi holati o'tasida bog'liqlik ta'limni samarali bo'lishiga garov hisoblanadi.

Ma'lumki, tabiiy geografiya kursi juda murakkabdir. Bu kursda o'quvchilarga yer kurrasining tuzilishi, uning harakati, gradus to'ri, yer atmosferasi, joy rejasi va kartalar tushuntiriladi. Biroq, geografik kartani o'zlashtirish ko'proq ikki mavzu- «Litosfera» va «Gidrosfera» bilan bog'liq bo'lib, bu mavzularda geografik kartada tasvirlangan hamma ob'yektlar berilgan. Shu boisdan ham bu ikki mavzuni o'rganishda o'qituvchi ko'proq ko'rgazmalilik printsipiga asoslanmog'i lozim. Ko'pchilik o'quvchilar o'z tajribalariga asoslanib yer yuzining turli ko'rinishlariga, ya'ni pastekisliklar, tog'lar, daryolar, sharsharalar, dengizlar, okeanlar, vulqonlarni kartadan o'rganib, ular haqida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

Geografiya darslarini kuzatish ko'pgina o'qituvchilar geografik ob'yektlarning kartada joylashgan o'rnini o'quvchilar ongida mustahkamlashda

geografik ob'ektlarning shaklini ifodalovchi maketlar, rasmlar, sxema, chizmalardan foydalanadilar. Tajribali geografiya o'qituvchilari ma'lum geografik ob'yekt haqida o'quvchilar ongida ko'p tomonli assotsiyalar hosil qilish ya'ni geografik karta, rasm, sxema, modellar asosida bir ob'yektga ko'p tomonlama assotsiyalar hosil qilish bilan chuqur bilim berib kelishmoqda.

Bir qator o'qituvchilar o'quvchilarning kartani puxta bilishlari uchun asosiy geografik ob'ektlarning kartada joylashgan o'rinlarini ular ongida mustahkamlashdan tashqari ularni gorizont tomonlariga orientirlash maqsadida joining geografik kengligi va uzoqligini aniqlashga doir mashqlar o'tkazib turadilar. Bu esa o'quv dasturida ko'zda tutilgan talab ya'ni, o'quvchilar karta va globusdan gradus to'ri bo'yicha berilgan kenglik va uzunlikka qarab geografik ob'ektlarning kartada joylashgan o'rinlarini aniqlay olish malakalarini tarkib topishiga yordam beradi.

O'quvchilar tomonidan geografik ob'ektlarni va joylarning kartada joylashgan o'rinlarini o'zlashtirishning psixologik xususiyatlari bilan bog'lik yuqorida bayon qilingan fikrlardan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. Tabiiy geografiya kursi o'quvchilar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda asosiy geografik ob'ektlarning nomlari hamda ularning kartada joylashgan o'rnini o'rgatiladi.
2. Bu kursni o'rgatishda dunyo tabiiy kartasini o'zlashtirishga ilmiy asos qo'yiladi va geografik kartani o'qishga doir dastlabki malakalar shakllanadi.
3. Tabiiy geografiya kursini o'rganish davomida har bir geografik ob'yekt haqida ko'p tomonlama assotsiyalar hosil qilganligi tufayli u haqidagi bilimi mustahkam bo'ladi.
4. Tabiiy geografiyani o'qitish davomida o'qituvchi o'quvchilarni geografik kartani mustaqil o'qishga o'rgatar ekan, har bir geografik ob'ektlarning (daryo, tog', tekislik, dengiz va h.q) kartada joylashgan o'rniga nisbatan assotsiyativ bog'lanishlar hosil qiladi. Bunday bog'lanishlar o'z navbatida har bir geografik ob'yektning

kartada joylashgan o'rnini esda olib qolishning psixologik asosi hisoblanadi.

5. Tabiiy geografiya kursida o'quvchilar ongiga geografik termin va nomlarini mustahkam singdirishlari uchun ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish zarur.
6. Geografik kartani o'qish bilan bog'liq, ammo mazmunan bir qator murakkabroq mavzular masalan, gradus to'ri joining geografik kengligi va uzoqligini aniqlash singarilar o'tiladi.

Kartadan joyning geografik koordinatalarini aniqlash o'quvchilarda muayyan orientiray olish qobiliyatlarini asosiy geografik ob'yektlarni mustahkamlash esda olib qolish va bu ob'yektlarning kartada joylashgan o'rnini aniq tasavvur qila olish faqat o'quvchilarning qobiliyat darajalariga emas, balki asosan o'qituvchining qo'llaydigan ta'limiy metodlariga va o'tkaziladigan amaliy mashqlarning yetarli miqdorda bo'lishi va xilma-xilligiga ham bog'lik bo'ladi.

#### Kartalar va ularning turlari

Maktab geografiya kurslarida qo'llaniladigan kartalarni klassifikatsiyalashda V. P. Budanovning alohida xizmatini ta'kidlab o'tish lozim. Kartalarni masshtabiga ko'ra klassifikatsiya qilishda ular asosan uch guruhga ajratiladi.

##### I. Yirik masshtabli kartalar:

1: 10000; 1: 25000; 1: 10000; 1: 20000;

##### II. O'rta masshtabli kartalar:

1: 300000; 1: 500000; 1: 100000

##### III. Kichik masshtabli kartalar:

1: 1500000; 1: 2500000; 1: 5,000000; 1: 10000000

Masshtabiga ko'ra kartalarni tanlashda geografiya o'qituvchisi ko'proq kichik masshtabli kartalarni tanlashi lozim. Chunki ular umumiy geografik tasvirlarni o'quvchilar yaxlit tasavvur etishga yordam beradi. Ta'limda

oddiydan-murakkabga tomon yo'naltirilgan tartibda avval kichik, keyinchalik o'rta masshtabli kartalardan foydalanish zarur.

Mazmuniga ko'ra kartalarni klassifikatsiya qilishda V.P. Budanov ularni ikki guruhga ajratadi.

- I. guruh: Umumgeografik kartalar
  - a) topografik kartalar.
  - b) obzor-topografik kartalar.
  - v) obzor kartalar.
- II. Maxsus kartalar (ular 2guruhga ajratiladi).
  1. Tabiiy kartalar.
    - a) iqlim kartalari.
    - b) tabiat zonalari kartasi.
    - v) tabiiy kartalar.
    - g) geologik (orografik) kartalar.
    - c) tuproq kartalar.
    - d) o'simlik kartalar.
    - e) hayvonot kartalar.
    - f) ekologik kartalar.
  2. Iqtisodiy-ijtimoiy geografik kartalar.
    - a) aholi geografiyasi oid kartalar.
    - b) tarixiy kartalar.
    - c) siyosiy kartalar.
    - d) iqtisodiy kartalar.

Kartalarning yuqorida tifa olingan klassifikatsiya bo'yicha turlari asosan maktab geografiya kurslarida qo'llaniladi. Tabiiy geografiya kurslarida asosan yarim sharlar tabiiy kartasi, globus qo'llanilganligi uchun ular masshtab jihatdan kichik masshtabli, mazmun jihatdan esa tabiiy kartalar qatoriga kiradi.

Geografiya kartografik bilimlar va ko'nikmalarni o'quchilarda shakllantirish quyidagi yo'llar bilan erishiladi.

1. O'quvchilarga karta va globus yer sharining modeli ekanligini ongli tarzda o'zlashtirib olish lozim.

Hammageografik kartalarga o'xshab maktab o'quv kartalari ham masshtabli, maqsadi, mazmuni, ishlatilishi va boshqa xususiyatlariga qarab turlarga bo'linadi. Geografiyada dastlab umumgeografik kartalardan foydalanilsa, kartaga bo'lgan ko'nikma, tushuncha va bilimlar oshib borgandan so'ng tematik kartalardan foydalanish imkoniyati tug'iladi.

So'nggi vaqtlarda kosmosdan olingan ma'lumotlardan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Kosmosdan olinayotgan ma'lumotlar asosida meteorologik va sinoptik kartalar tuzilmoqda.

Maktab o'quv kartalari boshlang'ich sinf o'rta va yuqori sinf kartalariga bo'linadi, mazmuni va rasmiylashtirilishi bo'yicha ular o'zaro farq qiladi.

Oquv kartalari yirik masshtabli, o'rta va mayda masshtabliga bo'linadi. Tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursida ko'proq mayda masshtabli yarim sharlar kartasi va materik kartalari qo'llaniladi. Ishlatilishi bo'yicha devorga osib qo'yiladigan kartalar va stol ustida yoyib qo'yiladigan kartalar va o'quv atlaslari ishlatiladi. Kitoblardagi oq-qora rangli kartalar mazmunining soddaligi, sxematik ravishda tuzilganligi kartografik to'rlarning ba'zilarida yo'qligi bilan ajralib turadi.

#### O'quvchilarni karta bilan ishlashga o'rgatish

Geografiya o'qitish uslubiyotida karta bilan ishlash 3 ta bosqichda olib borilishiga alohida e'tibor beriladi. Bular "kartani tushunish" "kartani o'qish" va "kartani bilish". O'quvchilar bilan mana shu 3 ta jarayonning mohiyatini avval tushunib olish zarur. Biz quyida geografik karta bilan ishlashning mana shu 3 jihati haqida to'xtab o'tmoqchimiz.

Kartani tushunish deganda –ma'lum kartografik bilimlarga ega bo'lish, karta uning xususiyatlarini, mazmuni, qo'llanish sohasidan xabardor bo'lish, undagi shartli belgilarning ma'nosini bilish, kartani qayerda qo'llash lozimligini bilish tushuniladi.

Kartani o'qish deganda- kartadagi shartli belgilarni bilish va shu asosda geografik hodisa yoki jarayon haqida xulosa qilish, kartada belgilangan geografik hodisani tushunish, ularni o'rganish tushuniladi.

Kartani o'qish kartani tushunishga nisbatan yuqoriroq pog'ona bo'lib uni o'qish uchun kartadagi shartli belgilarning mazmunini chuqur o'zlashtirish, masshtab, kartografik proeksiyalar va boshqa jarayonlarni chuqur bilish hamda karta bilan ishlash tajribasiga ega bo'lishni talab etadi.

Kartani bilish karta bilan ishlashning oliy nuqtasi bo'lib geograf olim va metodistlar kartani bilishga turlicha ta'riflar berganlar. Masalan, A.A. Polovinkin «Kartani bilish bu uni o'qiy olish, kartani tushunish va kartadagi nomenklaturani bilishdan iborat» - deb hisoblaydi. I.I. Zaslavskiy «Kartani bilish uni o'qish va tushunishdan tashqari kartani tuzilishi haqida ma'lumotga ega bo'lish va undagi kartografik tasvirlarni yodda saqlash hamdir» - deb ta'kidlaydi. A.B. Darinskiy esa «Kartani bilish deganda undagi nomenklatura va tegishli kartografik bilimlarga qo'shimcha shartli belgilarni chuqur bilish va kartaning tuzilishi ham kiradi» deb ta'riflagan.

Yuqoridagi tariflardan shunday xulosa qilish mumkinki kartani bilish bu juda murakkab jarayon bo'lib bunda kartani tushunish, shartli belgilar asosida undagi ob'yektlarni o'qiy olish, kartadagi joy nomlarini to'liq bilish hamda kartaning tuzilishi haqida zaruriy kartografik bilimlarga ega bo'lishini talab etar ekan. O'quvchilarga kartani o'rgatish jarayonida biz ularga oddiydan murakkabga yo'naltirilgan ikki bosqich ya'ni kartani tushunish va o'qiy olishga o'rgatishimiz zarur.

Kartani o'qish, tushunish deganda o'zaro bog'langan, lekin mazmun jihatidan bir-biridan farq qiluvchi tushunchalarni bilamiz. Kartada tasvirlangan voqea-hodisalarni shartli belgilar yordamida o'qish, uni tushunib yitadi degan gap emas. Buning uchun karta mazmuni to'g'risida ma'lum darajada nazariy geografik ma'lumotga ega bo'lmoq kerak.

Kartani o'qish kartografik belgilar orqali tasvir ma'nosini tushunish demakdir. Kartadagi har bir rang chiziq, belgi biror bir voqelikni tasvirlaydi. Shuning uchun o'quvchilarning kartani o'qishdan oldin ular ekskursiyalarga olib chiqiladi, rel'yef, va ularning ularning kartada tasvirlanishi o'rgatiladi. Shuningdek, kartada tasvirlangan voqea-hodisalarni

alohida emas, balki ularning o'zaro bog'liqligi, bir-biriga ta'sirini sedan chiqarmaslik lozim.

Kartani o'qishni yaxshi bilgan kishi kartada tasvirlangan territoriyada nimalar borligini bila oladi. Kartani o'qishni bilmasa, uni tushunib bo'lmaydi. Ammo kartani tushunmasdan o'qiy olsa bo'ladi. Kartani bilish tushunchasi yuqorida ta'kidlaganimizdek, tushunishdangina iborat bo'lmasdan, kartaning tayyorlanishini ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun geografiyasida oddiy topografik plan olish usullari o'rgatiladi, chunki mayda masshtabli geografik kartalar uchun asos topokarta hisoblanadi.

#### Globus bilan ishlash metodikasi

Globus-Yer sharining modeli hisoblanib u geografik kartalar singari zaruriy o'quv vositasi hisoblanadi. Globusning geografik kartadan bir qator qulaylik tomonlari mavjud. Odatda maktab geografik kurslarida qo'llaniladigan globuslar quyidagi to'rt xil masshtabda bo'ladi.

1: 30000000 - o'rta globus

1: 40000000 - katta globus

1: 50000000 - kichik globus

1: 83000000 - eng kichik globus

Globusning geografik karta nisbatan qulayliklari quyidagilardan iborat.

- Globus Yerning taxmini aynan ifodalangani uchun unda qiyofa, maydon, burchak xatoliklari bo'lmaydi.
- Globus Yerning qutblarini, uning o'qini va shaklini kartaga nisbatan aniqroq ifodalash imkonini beradi.
- Globusda karta orqali tushuntirib bo'lmaydigan abstrakt tushunchalarni, ya'ni, yerning o'qi, uning o'z o'qi atrofida aylanishi, yer o'qining ekleptika tekisligiga nisbatan qiyaligi singarilarni tushuntirish imkonini beradi.
- Ekvator, meridian, parallel chiziqlarni aniq belgilanganligi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.



- Globus faqat tabiiy geografiya kurslarida emas, boshqa geografiya kurslarini o'rganish jarayonida ham qo'llanishi mumkin.

Globus bilan ishlash jarayonida quyidagi ishlarni bevosita amalga oshirishadi.

2. Yerning shaklini tasavvur qilish, ekvator hamda meridian chiziqlarning uzunligini aniqlash, yening o'qini o'lchash bilan uning diametrik va radiusini aniqlash mumkin.
3. Globus ma'lum nuqtalarning geografik koordinatalarini aniqlash juda qulay hisoblanadi.
4. Sana o'zgarish chizig'i bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlarni aniq bajarish imkoniyati yaratiladi.
5. Shimoliy va janubiy qutb doiralari, shimoliy hamda janubiy tropiklarni o'quvchilar chuqur tasavvur etishiga bag'ishlangan topshiriqlarni echish.
6. Kecha va kunduzning almashinishi, eng uzun va qisqa kun, bahorgi va kuzgi tengkunlik, qutub kechasi va qutub kunlari kabi tushunchalar mohiyatini o'quvchiga tushuntirishda alohida ahamiyatga ega.
7. Globusda ikki nuqta orasidagi masofani aniqlashga doir topshiriqlarni bajarish ancha qulay va aniq hisoblanadi.

Tabiiy geografiyaga oid mavzularni o'quvchilar tomonidan chuqurroq o'zlashtirishda globus juda katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yer ellipsoidini tekislikda tushurishda yer sharining haqiqiy shakliga yaqinroq bo'lgan globus ko'proq misol qilib olinadi. Globus yer sharining shar shaklida kichraytirilib tasvirlangan modelidir. Yer ellipsoidi globusdan juda kam farq qilib, bu farq amalda sezilmaydi. Ular har xil mazmunga ega bo'lib geografik, siyosiy- ma'muriy, induksion (qora rangli bo'lib materiklarning andazalari rangli chizilgan), amaliy ishlarni bajarish uchun proeksion globuslarga bo'linadi. Hozirgi kunda rel'yefli globuslar ham mavjud. Ularning yer shari rel'yefini o'rganishda ahamiyati katta. Meridianlar globusda har 10<sup>0</sup>

yoki  $15^0$  dan o'tkazilib, qiymatlari ekvator chizig'iga yozib qo'yiladi. Parallellar esa har  $10^0$  dan o'tkazilib, ularning qiymatlari  $0^0$  yoki  $180^0$  li meridianlarda yoziladi. Globusni yasash uchun yer yuzasi 12 ta meridional bo'laklarga bo'linib, tayyor sharga yopishtiriladi. Globus geografiya darslarida ayniqsa juda muhim ko'rgazmali qurol bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Yerning shar shakil tasvirlanadi.
2. Yer yuzasidagi geografik ob'yektlarning o'zaro joylashish xolatlari to'g'risida ma'lumot beriladi. Yer yuzasining ayrim bo'laklari (materiklar, okeanlar, orollar, dengiz va qo'llar) ning bir-biriga nisbatat joylashishi haqida aniq tasavvur olinadi.
3. Yer yuzasining hamma joyida maydon va shakllar deyarli o'zgartirilmay tasvirlanadi.
4. Globus yuzasining hamma joyida masshtab bir xil bo'ladi.
5. Globusda yer yuzasidagi hamma burchaklar to'g'ri tasvirlanadi, meridian va parallellar o'zaro kesishganda to'g'ri burchak hosil qiladi.

Globusda yer yuzasidagi ikki nuqta orlig'idagi eng yaqin masofa bo'lgan ortodromiyani hamda meridianlarni bir xil burchak bilan kesuvchi chiziq loksodromiyani aniqlash mumkin. Ekvator va parallellar loksodromiya bo'lib hamma meridianlarni  $90^0$  li burchak bilan kesadi.

Amaliy ishlarni bajarishda induksion, oroeksion, kesilgan va boshqa xil globuslardan foydalaniladi. Induktsion globusda parallellar va meridianlar bo'r bilan chizib ko'rsatilsa, o'quvchilarga tushuntirish oson bo'ladi. Proeksion globus simdan yasaladi, soyasi yordamida kartografik proeksiyalar tushuntiriladi. Umuman olganda globuslar geografik bilimlarni o'quvchilar to'liq idrok etishlarida va ularda geografik ob'yektlarni fazoviy tasavvur etishda ularning ahamiyati juda kattadir.

## **II-BOB Maktab geografiya darsida geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanishni texnologiyalari.**

### **2.1MAKTAB GEOGRAFIYA DARSIDAGI GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHDA ATLASLAR VA YOZUVSIZ KARTALARDAN FOYDALANISHNI O'QITISH METODLARI.**

O'quvchilarning geografik bilimlarini o'rganish jarayonidagi mantiqiy mulohazalari va mustaqil tafakkuri darsni o'qituvchi tomonidan tashkil etilishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilardan murakkab masalalarni hal etishni talab etsa, ularning zehniy qobiliyatlarini ishga soladigan usullarni tadbiq eta olsa, o'quvchilar o'sha murakkab masalalarni bilishga intiladilar. Avvalo o'qituvchi o'quvchilarga o'rganadigan bilimlarning mazmunini tahlil qilib, o'quv ishlaridagi usullarni aniqlaydi. Shundan keyin o'quvchilar fikrini qaysi vositalar bilan rivojlantirish mumkinligini bilib oladi.

Ta'lim metodlari o'quvchilarga bilim berish ko'nikma malakalarni egallash bilangina cheklanib qolmaydi. Ta'lim metodlari deyilganda, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini shakllantiradigan bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatadigan, o'laroq ilmiy bilimni asoslangan to'g'ri dunyoqarash va e'tiqodni tarbiyalaydigan metodlarga tushuniladi.

Ta'lim metodlari o'qitishning umumiy va aniq maqsadlariga hamda maktab ta'limining mazmuniga ham bog'liq. Ilmiy-texnika jarayoni sharoitida an'anaviy metodlarni takomillashtirishga va yangi metodlarni izlab topishga tobora jiddiy talablar qo'yilmoqda. Ta'lim nazariyasi va geografiya ta'limida hozirgi kunda quyidagi tasnif keng tarqalgan:

I. Bilim olishning asosiy manbalariga ko'ra;

P. Didaktik maqsadlarga ko'ra;

Sh. Xulosa chiqarish faoliyatiga ko'ra.

Yuqoridagi barcha metodlarni shartli ravishda ikki: «Yangi bilim olish metodlariga va olingan bilimlarni qayta tiklash metodlariga» ajratish mumkin.

Biz «Maktab geografiya darsidagi geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash metodikasi» mavzusini umumta'lim maktablarida o'qitishda «Bilim olishning asosiy manbalariga ko'ra» turlaridan foydalanib, darslarni tashkil etish uslublarini ko'rib chiqamiz.

O'qituvchining har bir dars jarayonida keng qo'llash imkoniga ega bo'lgan, o'quvchilar ongiga tez yetib borishi va puhta bilim, ko'nikmalar xosil qiladigan metod turi bu-og'zaki bayon metodidir. O'g'zaki bayon ta'lim tarbiyada muhim ahamiyatga ega bo'lib, u geografiya fanining zamonga mos ravishda rivojlanayotgan turli jabhalari va muammolari, yutuqlari to'g'risida tanishtiriladi. O'qituvchi nutqidagi mantiq intonatsiya, o'rg'uning kuchi, dalillarning jonli va ishonarli bo'lishi o'qituvchilarning ongiga, his-tuyg'ulariga, kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni fikrlashiga o'rgatadi, ma'lum hulosalarga olib keladi. Jonli nutq o'quvchilarning bilim olishidagi boshqa manbalar, kursatmali qurollar va matnlar mazmunini tushuntirish, ular ustida mustaqil ishlashga, fikr yuritishga ham yul ochib byeradi.

O'g'zaki bayon boshqa metodlar bilan kushib olib borilishi kyerak. O'qituvchining o'g'zaki bayoni shuning uchun ham muhimki, o'quvchi darsga oid ma'lumotlarni darslikdan, kitoblardan qayta-qayta o'zlashtirishi mumkin. Lekin o'qituvchining bayonini qayta eshita olmaydi. Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonida darslikdan tashhari ma'lumotlardan keng foydalanish va mavzuning asosiy zaruriy qismlarini yodda qoladigan qilib ta'kidlab o'tmogi lozim.

«Maktab geografiya darsidagi geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash metodikasi» mavzusini o'qitishda o'qituvchi og'zaki bayon metodidan foydalanib, atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash juda murakkab vazifa ekanligini, atlaslar va yozuvsiz kartalarning turlari juda ko'p ekanligini, maktab geografiya darsidagi geografiya fanlarini o'qitishda har bir sinfda turli atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash kerakligini, har qaysi respublika hududi o'ziga xos atlaslar va yozuvsiz kartalarga ega ekanligini alohida atlaslar va yozuvsiz kartasidan foydalanib og'zaki bayon etadi. Har bir hudud turli davrlarda rivojlanganligini alohida atlaslar va yozuvsiz kartasidan foydalanib ko'rsatadi.

Masalan, har bir hudud turli geologik taraqqiyot davomida turli burmalanishlar va vulqon harakatlarini o`z boshidan kechirganliklarini, hududdagi to`g`lar, to`g` tizmalari, to`g` sistemalari, tekisliklar, pasttekisliklar, botiqlar, vodiylar va cho`llarning tarkib topishi to`g`risidagi ilmiy ma`lumotlarni taqqoslash, statistika, jadval va diagrammalar, kartalar yordamidan foydalanib og`zaki bayon etadi.

O`g`zaki bayon davomida o`quvchilar faoliyatini oshiruvchan turli usullar: taqqoslash, nam joylarni kartadan toptirish, savol-javoblardan foydalanish, o`rganilgan masalalar yuzasidan hulosalar chiqarish lozim. O`qituvchilar bilim va ma`lumotlarni yahshiroq o`zlashtirib olishlari uchun ularning e`tiborini ko`proq asosiy masalalarga jalb qilish mavzuning asosiy va ikkinchi darajali o`rinlarini ajrata olishlariga imkoniyat yaratish lozim.

O`quvchilarga geografik qonuniyatlarni, geografik jarayonlarni kengroq ochib berish lozim bo`lganda tushuntirish metodidan foydalaniladi. Maktab geografiya darsida 7-sinflarda O`rta Osiyoning geografik atlasidan foydalanib O`rta Osiyoning geologik tuzilishi va foydali qazilmalari qaysi geologik davrlarda rivojlanganligi, ularlarning eralar va davrlar kesimida tushuntirish va foydali qazilmalarning vujudga kelishi hususiyatlarini yozuvsiz kartada ishlab ochib berish kabi tushunchalarini yetkazish lozim. 7-sinflarda O`rta Osiyoning geografik atlasidan foydalanib geologik rivojlanishning ma`lum qonuniyat asosida borganligi ham diqqatga sazovardir.

Bu qonuniyatlarni geografik atlasidan foydalanib, tahlil qilib doskada quyidagi tayanch reja asosida tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

1. O`rta Osiyoning geologik tuzilishi asosan qaysi era va davrlarda shakllangan va bunga sabab nima?
2. Nima sababdan geologik taraqqiyotning asosiy bosqichlari Alp burmalanishiga to`g`ri keladi?
3. Foydali qazilmalarning joylanish rayonlarini belgilang?

Yuqoridagi savollar o`quvchilarda mustaqil fikrlash, hulosalar chiqarishga, voqea hodisalarning sabablarini ajratishga va kelajakda muammolarni hal qilish tadbirlari

izlab fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga hizmat qiladi. Nazariy va amaliy matyeriallarni puhta, izchil bayon qilish ilmiy bilimlarni egallashning asosini tashkil etadi.

Hikoya - o`quv matyeriallarini bayon qilish shakli bo`lib, asosan tasvirlash harakteriga ega. Bu uslubning ijobiy tomoni o`qituvchi o`quvchilar bilan ko`proq munosabatda bo`ladi.

«Maktab geografiya darsidagi geografiya fanlarini o`qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash metodikasi» mavzusini o`qitishda o`qituvchi hikoya metodidan foydalanib, atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash yo`llarini o`quvchilarga tushuntiradi. Masalan o`qituvchi dars jarayonida 7-sinf atlaslarida berilgan mavzulardan foydalanib O`rta Osiyoning geologik tuzilishi va foydali qazilmalarining tashkil topishi, tarixi, joylashgan geografik o`rni, hududlari, tabiiy konlar va ularning tarqalgan havzalari, geologik sana, geologik eralar va davrlar, burmalanishlarning O`rta Osiyo hududidagi xususiyatlarini tushuntirishda hikoya metodi qo`l keladi. Hikoya davomida geologik sana va geologik kartadagi ko`rsatgichlardan foydalanilsa hikoya qiziqarli chiqadi. Hikoyada darsning turli bosqichlarida va darsga xotima yasaydi. O`qituvchi hikoyani o`quvchinig yoshiga moslab tanlaydi. 7-sinflarda hikoya juda soddalashib ketmasligi unda tushunchalar masalan, O`rta Osiyoning geologik-geografik xususiyatlari, geologik taraqqiyotning rivojlanish darajasi bir-biriga nisbatan uzviy bog`langan va hakozi tushunchalar hamda atamalar albatta aks etishi lozim. Hikoya davomida o`qituvchi nazorat savollarini berib borishi, masalan, O`rta Osiyodagi eng katta foydali qazilma konlari qaysilari, ular qaysi mintaqada joylashgan, ularning joylashgan hududlari, nomlari, qachon qazib olish boshlangan, asosan dunyodagi qaysi mamlakatlarga chiqaradi va eksport qiladi kabi savollarni berib borish mavzuning puxta o`zlashtirilishini ta`minlaydi.

Tushuntirish - o`qituvchilarga geografik qonuniyatlarni, geografik jarayonlarning mohiyatini ochib berishda keng qo`llaniladi. Bu metod geografiya ta`limida bilimlarni izchil o`rganish imkonini byeradi. Masalan o`qituvchi dars jarayonida 7-sinf atlaslarida berilgan mavzulardan foydalanib O`rta Osiyoning

geologik tuzilishi va foydali qazilmalarining eralar va davrlar bo'yicha rivojlanishi, ularning sabablari, geologik burmalanishlar, baykal, kaledon, gyersin, alp tushunchalari va ularning rivojlanish davrlari, hududga ta'siri, to'g' jinslarining to'planishi, hosil bo'lishi, tarqalishi, yoshi tushunchalarini izohlashda tushuntirish metodidan samarali foydalanish mumkin. Bundan tashqari O'rta Osiyoning geologik tuzilishi va foydali qazilmalari xususiyatlarini respublikalar bo'yicha yozuvsiz kartalarini ishlab tahlil qilib izohlashda tushuntirish metodidan foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni yozuvsiz kartalarda berilgan voqea va xodisalardan xabardor qiladi, ular o'rtasidagi aloqalarni ochib byeradi, xulosalar chiqaradi va yakunlaydi. O'qituvchi bunda qisqacha muammoli savollar berishi mumkin. Masalan: O'rta Osiyoning geologik tuzilishining geografik xususiyatlarining Yevrosiyo matyerigi geologik tuzilishining geografik xususiyatlariga nisbatan farqlanishini, uning sabablari haqidagi bilimlarni aniq faktlar asosida izohlab berishi lozim. Tushuntirish bilan birga kartalar, diagrammalar, karta sxemalardan foydalanish ham ijobiy natijalar berib, bu o'quvchilar xotirasi va mavzuning chuqur o'rganishga sabab bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchining ikki tomonlama aloqasi tushuntirish metodini takomillashtirishga yordam byeradi. Tushuntirish sodda, aniq, ravon bo'lishi lozim.

Maktab geografiya ta'limida alohida ahamiyat kasb etadigan suhbat metodida esa o'qituvchining savoli va o'quvchining javobi asosiy o'rin tutadi. Bu metodning bosh talabi mukammal o'ylangan savollar va o'quvchilar qaytarishi mumkin bo'lgan javoblarning puxta tuzilishidir. Bunda savol aniq bo'lishi, ya'ni o'quvchilar suhbat nima ustida borayotganini hamisha tushunishlari shart. Mavzu e'lon qilingandan so'ng savollar o'rtaga tashlanadi. Suhbat mantiqiy qismlarga bo'linadi, o'qituvchi o'quvchilar javobini tinglaydi, ularning javobidagi xatolarini tuzatadi va to'ldiradi. Shundan so'ng o'quvchilarni yakun yasashga undaydi.

Suhbat metodi o'qituvchi savoli va o'quvchining javobi asosida o'quv matyerialini o'zlashtirishi, mavzu mohiyatini tushuntirilish darajasi va bilim egalashning savol- javob shaklidir.

Suhbat metodini tashkil etishda qo'yiladigan asosiy talab- mukammal o'ylangan savollar tizimi va unga o'quvchining berishi mumkin bo'lgan javoblarining puxta tizimidir.

«Maktab geografiya darsidagi geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash metodikasi» mavzusini o'qitishda o'qituvchi misol tariqasida 7-sinflarda «O'rta Osiyoning geologik tuzilishi va foydali qazilmalari» mavzusini o'tishda atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash uchun keng ko'lamdagi yevristik suhbatdan foydalanib quyidagi savolar tizimini o'quvchilar e'tiboriga havola qilish mumkin.

- O'rta Osiyoning geologik tuzilishi atlaslarda qanday rel'yefli hududlarini o'zida aks ettiradi?
- Geologik tuzilishi atlaslarda nima sababdan turlicha ranglarda berilgan, bu ranglarni qanday o'qish mumkin?
- To'g'ularining uzunligi, maydoni, balandligi, cho'qqisi qanchaga tengligini atlaslardan foydalanib yozuvsiz kartalarni ishlash mumkin?
- O'rta Osiyoning yirik foydali qazilmalar konlari nomlarini ayting va uni atlaslardan foydalanib yozuvsiz kartalarni ishlash mumkin?
- O'rta Osiyodagi eng uzun to'g' sistemasi qaysi va u qanday nom bilan atalishni atlaslardan foydalanib yozuvsiz kartalarda aks ettirish mumkinmi?
- Atlaslardan foydalanib O'rta Osiyoning tektonik kartasini tahlil qiling va uning yozuvsiz kartasini ishlang?
- Atlaslardan foydalanib O'rta Osiyodagi yirik foydali qazilmalar konlarining nomlarini ayting va uning yozuvsiz kartasini ishlang?
- Atlaslardan foydalanib O'rta Osiyoda ro'y bergan geologik burmalanishlarning nomlarini ayting va uning yozuvsiz kartasini ishlang?
- Geografik adabiytlardan va atlaslardan foydalanib O'rta Osiyodagi yirik rangli va nodir metallar konlari zahirasini ayting va uning yozuvsiz kartasini ishlang?
- Atlaslardan foydalanib O'rta Osiyoning qaysi hududlarida foydali qazilmalar keng tarqalganligini aniqlani va uning yozuvsiz kartasini ishlang hamda buning sababi nimada ekanligini amaliy ishlar daftariga yozining?



Keng ko'lamdagi bunday suhbat asosan yangi bilimlarni o'rganish va yakuniy takrorlashda qo'llanib, savollar bir-birini to'ldirishi, sabab-aloqadorlik qonuniyatlarini tushuntirishga yordam qilishi lozim. Savollarning javobini aytishga o'quvchi qiynalganda yoki javob to'liq bayon etilmaganda, o'qituvchi javoblar mazmunini o'zi keng yoritib berishi lozim. Suhbat boshqa metodlar bilan qo'shib olib boriladi. Bu metodlar bilan yana bir ijobiy xususiyati shundaki bu metodda mavzu matyerialini puxta o'rganish bilan bir vaqtda o'quvchilar bilimni aniqlash imkoni bo'ladi. Ma'ruza metodidan umumtalim maktablarining yuqori sinflarida geografiya darslarida murakkab mavzuli va keng hajmli mavzularda adabiytlardan va atlaslardan foydalanib olib boriladi.

Ma'ruza jarayonida mavzu ravon, ilmiy va izchillik asosida boshqa metodlar bilan uyg'unlashtirilib olib boriladi. Ma'ruza vaqtida xarita, jadval, grafik, tasvirli qo'llanmalar, doska va turli vositalardan unumli foydalanish imkoniyati mavjud.

- Ma'ruza ilmiy jihatdan mukammal bo'lishi lozim.
- Ma'ruza darslik mazmuniga qaraganda keng, uni ko'p jihatdan oydinlashtiradigan bo'lishi kyerak.
- Ma'ruza mazmunan ko'rgazmali bo'lishi kyerak.
- Ma'ruza o'quvchilarni fikrlashga, voqea va hodisalarni tahlil qilishga, umumlashtirishga o'rgatishi kyerak.
- Ma'ruzaning o'quvchilarga etib borish uchun o'qituvchi o'zining nutqi ustida ko'p ishlashi lozim.
- Savollar ma'ruza yakunida byerilishi maqsadga muvofiq.

Geografiya darslarida o'qituvchining o'qib berishi.

Matn badiiy jihatdan boy va ta'lim-tarbiya jarayonida ko'p usullarini qullashi imkoni tug'ilgan vaqtlarda bu metoddan foydaniladi. Mavzuga oid matnlarni geografik kitoblar, atlaslar, jurnal va gazetalardan olish mumkin.

Mavzuga oid badiiy mantlar: Zahriddin Bobur, Abu Rayhon Byeruniy va boshqa mutafakkirlarning asarlarada keltirilgan atlaslarda O'rta Osiyoning foydali qazilmalari, konlari, o'sha davrdagi geologik hamda tektonik

rivojlanishlari haqidagi ma'lumotlarni o'qib berish darsni qiziqarli va mazmunli o'tilishiga sabab bo'ladi.

Mavzuga oid atlaslardagi, gazeta va jurnallardagi yangiliklar: masalan, O'rta Osiyoning 7-sinf atlaslaridan foydalanib geologik taraqqiyot va davr muammolari, yangi ochilayotgan foydali qazilmalar haqidagi ma'lumotlarni o'qib berish darsni zamon va fan-texnika yutuqlari bilan uyg'unlashtirib olib borishga imkon beradi. Geografiya darsligi bilan ishlash metodlari.

Geografiya darsligi bilan ishlash hihoyatda xilma-xil bo'lib, ular quyidagilardan iborat.


- Geografik atlaslardan foydalanib undagi matn bilan ishlash.
- Geografik atlaslarda berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash.

Masalan, O'rta Osiyoning geologik tuzilishi va foydali qazilmalari» mavzusi matni bilan ishlaganda geografiya o'qituvchisi geografik adabiytlardan va atlaslardan foydalanib o'quvchini matnni o'qib izchil o'rganishga erishishi lozim. Darslikda mavzuning boshlanish qismida bundan oldingi geografiya darslarida geologik tuzilishi mavzusini xotirada esga olish va ba'zi geologik tushunchalar mazmuni so'rash savollari mavjud. Mavzu matni atlaslardan foydalanib bir necha qismlarga bo'linib har bir darsni mana shu qismlarga muvofiq reja asosida o'tish lozim.

O'rta Osiyoning geologik tuzilishi va foydali qazilmalari tasnifidan sung, atlaslardan foydalanib eralar ta'rifi, yirik konlarning xususiyatlari, er ostining tuzilishi bayoni ketma-ketlik asosida ta'riflanadi. Mavzu yakunida matnni mustahkamlash va olingan bilimlarni rivojlantirish maqsadida atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash savol va topshiriqlar berilgan. O'quvchilarning mustaqil fikrlash va izlanishlarini takomillashtirish maqsadida savollardan va amalda bajarish uchun mo'ljallangan topshiriqlardan iborat. «O'ylab ko'ring va amalda bajarish» nomli topshiriqlar tizimi berilgan. O'quvchilar mustaqil ravishda atlaslardan foydalanib O'rta Osiyoning geologik tuzilishini darslik matni va qo'shimcha adabiyotlar asosida unung yozuvsiz kartasini ishlashi hamda o'qituvchi to'ldirishlari mumkin.

## O`rta Osiyoning foydali qazilmalari.

Konning nomi	Joylashgan manzili (km)	Xavzasining maydoni	Bosh konning joyi	Qazib olinish boshlangan vaqti	Qo`shimcha konlari.	Eng ko`p qazib olingan vaqti	Qayta ishlanadigan korxonasi
--------------	-------------------------	---------------------	-------------------	--------------------------------	---------------------	------------------------------	------------------------------



## **2.2 GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHDA ATLASLAR VA YOZUVSIZ KARTALARDAN FOYDALANISHNING NO'NANAVIY DARS USLUBLARINI QO'LLASH.**

Maktab geografiyasining mazmuni hozirgi zamon geografiya fani taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib bormoqda. Geografiya fanini o'qitishning turli usullari va shakllari qaror topmoqda.

Bunda butun jahonda tajribadan o'tgan turli xil yo'nalishlar bo'yicha qo'llaniladigan uslublar bizning umumta'lim maktablarida sinovdan o'tmoqda.

Hozirgi kun davr talabiga mos ravishda noan'anaviy dars uslublarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamon darslari bir necha o'nlab xususiyatlarga ega.

Bunda avvalambor o'quvchi shaxsini shakllantirishga, unda geografik madaniyatni rivojlantirishga e'tibor berish lozim. O'qituvchi o'quvchi bilimlarini faoliyati tashkil etishda asosiy tashkilotchi va maslaxatchi bo'lishi kerak. O'quv vazifalari muntazam kuzatilib borilishi, o'quv jarayoni paytida o'quvchilar o'rtasida o'zaro muloqatlar, o'zaro aloqa, suxbat va tortishuvlar bo'lishi lozim. Darsda bevosita o'z xududimizni mamlakat miqyosida va boshqa davlatlarga nisbatan taqqoslash muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarda ijodiy faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy darslarda, dars-seminar, dars-sinov, dars-o'yin, dars-konferensiya, muammoli vaziyat, "Mexmon chaqirish", "aqliy xujum", "rol o'yini", "qor uyumi", press konferensiya kabi noan'anaviy dars uslublari qo'llanilmoqda.

Quyida ushbu uslublardan foydalangan holda maktab geografiya darsidagi geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish mavzusini o'qitish yo'l-yo'riqlari bilan tanishib chiqamiz.

Hozirgi kunda ta'limni tashkil qilishning eng keng qo'llanilayotgan shakllaridan biri – seminar darsidir. Uning asosiy vazifasi o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini hamda mustaqillik xislatlarini tarbiyalashdan iborat. Aholi tarkibini

atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanib o`rganishda o`quvchilarni bir necha guruhlarga bo`lib, ularning bir qismiga O`zbekiston respublikasi viloyatlarining tabiiy geografik xususiyatlarini atlaslardan foydalanib yozuvsiz kartalarni ishlash bo`yicha uyga vazifa qilib beriladi. Masalan: Toshkent viloyatlarining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari, Andijon viloyatlarining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari, Qashqadaryo viloyatlarining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari va hokozolar. O`quvchilarga o`qituvchi qanday adabiyotlar, jurnallar va gazetalardan ma`lumotlar olish mumkinligini tushuntiradi. Seminar mashg`ulotiga o`qituvchining o`zi xam puxta tayyorgarlik ko`radi. Chunki har bir o`quvchi mavzu doirasida to`plangan ma`lumotlarni o`qituvchi to`ldirib borishi lozim. Shu bilan birga har bir o`quvchi o`z ma`ruzasini hulosalashga o`rganish lozim.

O`quvchilar bilimi o`zlari bajargan ma`ruzalarining mazmuni va mohiyati rejasi va xulosasining mukammalligi va o`quvchi nutqi ravonligiga qarab o`qituvchi tomonidan baholanadi. Seminar darslari ko`p ijobiy xususiyatlarga ega bo`lib, qisqa vaqt ichida ko`p xajmli ma`lumot olish imkoniyati tug`iladi va o`quvchilarda turli bilim manbalari bilan ishlash ko`nikmalari shakllanadi. Zamonaviy dars metodlarining ayrimlari bilimlarni mukammalligiga, ayrimlari mustaqil fikr yuritish va izlanishga, ayrimlari esa maxsus ko`nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. O`quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini charxlashga va xulosalar qilishga o`rgatuvchi metodlardan “aqliy xujum”, “muammoli vaziyat” metodlari ham bor. Bunda butun bir sinfga mavzuga doir biror savol tashlanadi. Masalan, mavzumizga doir maktab geografiya darsidagi geografiya fanlarini o`qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan foydalanish qanday tabiiy-iqtisodiy omillar asosida rivojlanmirlmoqda. O`quvchilar bu savolga birin – ketin ayta boshlaydilar: atlaslardan foydalanib tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari yozuvsiz kartalarini ishlash, ishchi o`rinlarining ko`pligi, texnologiyalarining zamonaviyligi va hokozolar. O`qituvchi bu javoblarni doskaga yozib boradi va o`quvchilarga tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklariga ta`sir ko`rsatuvchi omillarni ayting deb bergan savoliga o`quvchilar har bir javob bo`yicha qo`l ko`tarib tasdiqlaydilar. Bu savolga o`qituvchi o`z fikrini aytadi va aniq to`g`ri javobni belgilaydi. Yana shu mavzu bo`yicha

o`rtaga: Atlaslardan foydalanib Toshkent viloyatining tabiiy-iqtisodiy geografik tarmoqlari ko`proq rivojlangan degan savol tashlanadi. O`quvchilar unga sanoat va qishloq xo`jaligi hamda transport va boshqalar deb javob beradilar.

O`qituvchi; Toshkent viloyatining tabiiy-iqtisodiy geografik tarmoqlari qadimdan va hozirgi kunda ham rivojlangan tarmoqlarini yozuvsiz kartada ishlang va belgilang degan savoliga o`quvchilar javoblari ichida eng ko`p to`qimachilik, neft-gaz, qishloq xo`jaligi, chorvachilik mavjud tarmog`ini yozuvsiz kartada belgilaydilar. Ushbu muammoli savollar o`quvchilarni ijodiy faoliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Savollar mazmuni jixatdan teran bo`lishi lozim va o`quvchi uning javobini ishlashga xulosalar chiqarishga harakat qilmog`i lozim. Darsda o`quvchilarning puxta bilim egallashlari, ko`roq ma'lumot to`plashlari uchun "qor uyumi" uslubidan foydalanish ham qo`l keladi. Bunda o`qituvchi mavzuga doir savol beradi. Bu savolga har bir o`quvchi o`z bilimiga tayangan holda javob berishga harakat qiladi. Atlaslardan foydalanib O`zbekiston respublikasining tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishi qaysi yirik viloyatlarga to`g`ri keladi, yoki atlaslardan foydalanib O`zbekiston respublikasi viloyatlarining tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishi kelajakda qanday geografik oqibatlarni keltirib chiqaradi, yoki atlaslardan foydalanib O`zbekiston respublikasi viloyatlarining tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishida hozirgi kunda qanday muammolar mavjudligini yozuvsiz kartada ishlang va belgilang, O`zbekiston respublikasi viloyatlarining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini rivojlanish darajasiga siz qanday yo`l- yo`riq ko`rsatgan bo`lar edingiz kabi savollar ushbu uslubda qo`llanishi mumkin. Ba`zi bir dars turlarida o`quvchilarning to`liq qatnashishi imkoni bo`lmaydi. Lekin "qor uyumi" uslubidan foydalanganda har bir o`quvchi o`z fikr muloxazalarini bildiradi. Shuning uchun darsni qunt bilan tinglashga va unda faol ishtirok etishga harakat qiladi. Darsning mustaxkamlash qismida savol javoblar bilan birga qatorlar o`rtasida musobaqalar, geografik o`yinlar, krossvordlarni yechish kabi o`quvchilarning faolligini oshiruvchi uslublardan foydalanish qo`l keladi. Masalan, har bir qatordan bir vakil o`quvchi doskaga chiqarilib, bu uchta o`quvchiga O`zbekiston respublikasi viloyatlarining nomini yozing deb savol berish mumkin.

O`quvchining qaysi biri ma'lum bir vaqt ichida atlaslardan foydalanib ko`proq javob yozsa, ushbu o`quvchi yutib chiqqanligini aytib berish lozim. Bu narsa nafaqat darsga qiziqishining ortib borishiga balki, o`quvchining kattalar bilan ham muttasil ishlab borishiga sabab bo`ladi.

Navoiy shahridagi 17- umumta'lim maktabida o`quv amaliyoti davrida geografiya fanlarini o`qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalardan maktab geografiya darsidagi foydalanish mavzusi bo`yicha ochiq dars o`tdim. Bu mavzuni o`tish jarayonida pedagogik amaliyot raxbarim M.Bektasov maslaxatlari bilan noan'anaviy dars uslublaridan dars- seminar, aqliy xujum va qatorlararo musoboqa turlarini qo`lladim. Natijada o`quvchilarning qiziqishlari va tayyorgarliklari ortdi. O`quvchilar butun dars davomida o`zaro baxs- munozara qildilar. Diagramma va kartalar bilapn ishlab natija va xulosalarni bayon qildilar. Darsning yakunida o`z oldimga qo`yilgan ta'limiy, tarbiyaviy va o`quvchilar bilimni rivojlantiruvchi maqsadlarga to`liq erishdim. Darsimiz qiziqarli va mazmunli o`tdi.

## **2.4 GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHDA ATLASLAR VA YOZUVSIZ KARTALARDAN FOYDALANISHDA SINFDAN TASHQARI BAJARILADIGAN ISHLAR.**

### **KARTA, DIAGRAMMA, DARSLIK VA KO'RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISH**

O'qituvchi o'z mehnatining natijasiga darsda ta'limning ko'rgazmali vositalardan foydalanib erishishi mumkin. Bu vositalar darsni yaxshiroq, to'liqroq o'quvchilar tushunib etishida yordam beradi. Akademik Pavlovning isbotiga ko'ra inson so'z orqali 2 sek.da o'rganilayotgan jismni o'zlashtirilib olishi mumkin ekan. Shunday ekan, o'qituvchi darsda ko'rgazmali quoldan foydalanishi ham natijaga erishishning bir ko'rinishidir. Ko'rgazmali vositalarning ahamiyati qaqida "Suratni sinfga olib kirsang, soqov ham tilga kiradi"- deb aytilgan so'zning o'zi fikrimizning dalilidir. Ta'limning ko'rgazmali vositalarini 4 ta asosiy guruhga bo'lish mumkin.

#### **1. BOSMA KO'RGAZMALI VOSITALAR**


Bularga kartalar, sxemalar, jadvallar, applekatsiyalar misol bo'ladi.

#### **KARTA GEOGRAFIYANING TILI**

Maktab geografiya darslarida geografiya fanlarini o'qitishda foydalaniladigan atlaslar va yozuvsiz kartalarini o'quvchilarga o'rgatayotganimizda bizda Duyoning siyosiy kartasi hamda Markaziy Osiyoning, O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy kartalari kerak bo'ladi. O'quvchilarga Duyoning siyosiy kartasi hamda Markaziy Osiyoning, O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy kartalarining tuzilishi, taraqqiyot tarixi, qachon mustaqillikga erishganligi, tabiiy resurslari, yirik konlari, daryo va transport yo'llarini aloqida ko'rsatish ularning kartaga bo'lgan qiziqishlarini ortiradi.

Sxemalar. Bu mavzuni o'quvchilarga o'rgatishda Duyoning siyosiy kartasi hamda Markaziy Osiyoning, O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy kartalaridagi va yozuvsiz kartalaridagi xamda biror-bir respublikaning chizmasini o'quvchilarga chizib ko'rsatsak, ularning tassovurlari, bilimlari ancha shakllanadi.





Jadvallar. Jadvallar geografik atlaslaridagi va yozuvsiz kartalaridagi ma'lumotlarni qayta ishlashda muhim ahamiyatga ega. Jadvallar asosan statistik bilimlar asosida tuziladi. Indeks, koeffitsient va boshqalarni bilish turli va boy mazmunli jadvallar tuzish mumkin. Uni tuzishning muhim sharti u asosan eng yangi ma'lumotlar asosida tuziladi.

Diagrammalar. Maktab geografiya darslarida geografiya fanlarini o'qitishda foydalaniladigan atlaslar va yozuvsiz kartalarini o'quvchilarga o'rgatayotganimizda diagrammalar muhim ahamiyatga ega. Diagrammalar orqali mustaqil davlatlarning tabiiy resurslarining zaxirasi ulushini, aholining milliy tarkibi, sanoat yoki qishloq xo'jaligi sohaslarining ulushini ifodalash mumkin.

## 2. TA'LIMNING EKTRANLI VOSITALARI.

Bunga ekranli statistik vositalar va ekranli vositalar misol bo'la oladi. Bu vositalar ham darsning qiziharli, muvoffaqiyatli chiqishiga imkon byeradi. Duyoning siyosiy kartasi hamda Markaziy Osiyoning, O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy kartalaridagi xamda biror-bir respublikabing siyosiy kartasini o'quvchilarga o'rgatayotganimizda uning qaerda joylashganligini va kim bilan chegaradoshligini, qaysi materikda joylashganligining filmlarni imkonicha vaqt topib o'quvchilarga ko'rsatish ham samarali natija byeradi.

## 3. TA'LIMNING OVOZLI VOSITALARI.

1. Gramplastinkalar

2. Magnitafon yozuvlari

3. Kompyutyerlar

hozirgi vaqtda o'quvchilarning informatsiyalarini qabul qilish manbalari ko'payib bormoqda.

Radio va televizion axborot vositalari, kompyuter texnikasi, internet tarmoqlari orqali masofali ta'lim berish, bunda mavzu o'rganilayotganda o'quvchilardan ular ko'rgan, eshitgan ma'lumotlari so'raladi. O'quvchilarning darslik bilan ishlashi geografiya ta'limi jarayonida bilim manbai bo'lib xizmat qiladi. Darslik bilan ishlash o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar qajmi va me'yorini belgilaydi. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan havaslarini oshiradi. Xar bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana olishga o'rgatish lozim.

Geografiya o'qituvchisi darsga ko'rgazmali qurollarsiz kirishi xech qanday samara byermaydi. Shuning uchun har bir yangi mavzu o'tilishidan oldin o'qituvchi o'sha mavzuga tegishli ko'rgazma vositalarini tayyorlab qo'yishi kerak. Zyero dars yutug' o'qituvchining yutug'i, dars kamchiligi uning kamchiligidir.

#### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH VA UYGA VAZIFA BERISH

Mavzuni mustahkamlash, uyga vazifa, o'quvchilarning shaxsiy hususiyatlarini o'rganishga yordam byeradi. Darsda o'rganilgan mavzu mustahkamlab borilmasa o'rganilgan bilim o'quvchilar xotirasidan ko'tarilib ketadi. Mustahkamlash o'quvchi nutqini o'stiradi va bir qancha yo'l olib boriladi.

Dastlabki mustahamlash. Bunda odatda yangi material o'rganib bo'lingach dars oxirida o'tkaziladi. Mustahkamlash yangi matyerialni o'rganish bilan birga qo'shib olib borilishi mumkin. Dastlabki mustahkamlash, darslik va karta bilan ishlash, daftarga yozish, yozuvsiz kartani to'ldirish kabi o'quvchilarning amaliy va mustaqil ishlari tarzida olib boriladi. Mavzu bunday usulda mustahkamlanganda yangi o'rganilgan mavzuni ilgari o'rganilgan mavzuni taqoslash yaxshi natija byeradi. Mustahkamlashning yana bir yo'li takrorlash. Takrorlash darsning hamma qismida olib borish mumkin. Maktab geografiya darslarida geografiya fanlarihi o'qitishda foydalaniladigan atlaslar va yozuvsiz kartalari mavzusini o'rgatishda o'quvchilarga muhim ahamiyatga ega. Har bir mavzu tushintirilib bo'lgach dars yakunlanishi arafasida mavzuni mustahkamlab olish kerak. Bu usul bilan o'quvchilarning dars davomida o'zlashtirgan bilimlari sinaladi.







## XULOSA

Amaliy geografiya fani ham boshqa fanlar qatori yangicha sharoitda rivojlanib, mustaqil mamlakatlarning qudratini yanada mustahkamlashga o'zining munosib hissasini qo'shib bormoqda. O'quv jarayonida u yosh avlodga geografiya fanlarini o'qitishda atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlashda Duyoning siyosiy kartasi hamda Markaziy Osiyoning, O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy kartalari kerak bo'ladi. O'quvchilarga Duyoning siyosiy kartasi hamda Markaziy Osiyoning, O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy atlaslar va yozuvsiz kartalarining tuzilishi, taraqqiyot tarixi, davlatlarning qachon mustaqillikka erishganligi, tabiiy resurslari, yirik konlari, daryo va transport yo'llarini aloqida ko'rsatish ularning kartaga bo'lgan qiziqishlarini ortiradi. Bundan tashqari Duyoning, Markaziy Osiyo o'lkasining o'ziga xos geologik tuzilishi, tektonikasi, tabiiy resursi, axolisining va xo'jaligining qududiy jiqatlarini, jahon siyosiy kartasi va hamjamiyatining nufuzini tobora ortib borishini o'rganishga yordam beradi. Nazariy va amaliy yo'nalishda esa mazkur fan Markaziy Osiyo davlatlarining atlaslari va yozuvsiz kartalari bilan ishlashda mintaqaviy siyosati, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan boqliq muammolarini hamda bozor munosabatlariga o'tish davrida xalq xo'jaligining turli tarmoqlari sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, infrastruktura tizimini shakllantirish, ijtimoiy ekologiya kabi muhim masalalarini tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega. Men malakaviy bitiruv ishimda umumta'lim maktablarining geografiya darslarida atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlashda mavzusini

o'rgatishda o'quvchilarga muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlatlarning, jumladan Markaziy Osiyo davlatlarining geologik tuzilishi, tektonikasi, foydali qazilmalari, sanoati, aholisi, xo'jaligi va yirik shaxarlariga geosiyosiy jihatdan chuqurroq to'xtalishga va uni o'qitish usullariga katta ahamiyat berdim. Shuningdek birinchidan, ilgari ittifoq davrida o'ta markazlashgan jamiyatni rivojlantirish va boshqarish siyosati davrida regionlarga, mamlakat ichkarisiga bo'lgan e'tibor zaiflashgan edi. Buning oqibatida Sobiq Ittifoqning turli respublikalarida yashovchilar o'z yurtiga ko'ra o'zgan yaxshiroq bilan edilar. Bundan O'zbekiston ham mustasno emas. Hozirgi tahlil tuman va hatto yirik qishloqlar darajasiga tushunish kerak. Vatanimiz dunyo nuqtai nazaridagina emas, balki jahonning O'zbekiston nuqtai nazaridan o'rganilishi kerak.

Ikkinchidan, geografik atlaslar va yozuvsiz kartalar har holda geografik fanlar tizimiga kiradi. Ammo darslikda u hatto tabiiy va iqtisodiy geografiyadan ham uzoqlashib ketgan. Vaholanki bu ikki fan umumiy geografik mazmunga ega bo'lgan qonuniyat va kategoriya azonallik, komplekslilik, regionallik, geotizim, rayonlashtirish va boshqa tabiiy va notabiiy ya'ni ijtimoiy geografiyani nazariy uslubiy jihatdan bir biriga mustahkam bog'laydi. Men malakaviy bitiruv ishimda bu jihatlarga ham e'tibor berdim.

Uchinchidan, bizga ma'lumki atlaslar va yozuvsiz kartalar geografiyada sof va aniq iqtisodiy-siyosiy bilimlarga, statistikaga e'tibor ancha bo'shashgan. Menimcha, geografik atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlashda o'qituvchi ham tabiiy va iqtisodiy geografiyani ham amaliy geografiyani mukammal bilishi kerak. Bu uning eng muhim betakror xususiyati, asosiy mazmun, moqiyat va maqsadidir. Dars jarayonida

statistika asosida tuzilgan jadval, sxema, diagramma, dars maqsadiga etishishda muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, biz yaxshi bilamizki atlaslar va yozuvsiz kartalar geografiyaga doim mukammal va mustaxkam fan sifatida emas, oddiy o'quv fani sifatida qarash odat tusiga kirib qolgan. Bu hol maktab geografiyasiga xosdir. Shu masalani hal etish uchun geografik atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlashda o'qituvchi geografiya fani va uni o'rganish ob'ektlariga o'quvchilarni qiziqishi ortishiga olib kelishi mumkin. Geografiya ham matematika, ona tili, tarix kabi fanlar qatoriga olib chiqishi kerak.

Beshinchidan, geografik atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlashda o'qituvchi geografiyani asosiy fanlar qatoriga olib chiqish uchun ko'b tadqiqotlar olib borilishi kerak. Rivojlangan mamlakatlarda makroiqtisodiy emas, mikro iqtisodiy masalalar tadqiq etiladi. Tabiiyki, bunday tadqiqotlarni aniqligi yuqoridir. Shuning uchun ham global va regional fikrlab lokal masshtabda amal qilish maqsadga muvofiqdir. Umumta'lim maktablarining geografiya darslarida atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash mavzusini o'rgatishda o'quvchilarga uch soatgina vaqt ajratilgan, bu albatta bu hududni o'rganish, chuqur tahlil qilish imkonini byermaydi. Ayniqsa, bu o'lkada yashovchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirmaydi.

Oltinchidan, men dastur tuzuvchilarga quyidagi maslaqatlarimni bergan bo'lardim: har bir tabiiy va iqtisodiy o'lkaning atlaslari va yozuvsiz kartalari bilan ishlashda uch yoki to'rt soatdan o'tilsa ham o'quvchi yashayotgan tabiiy va iqtisodiy o'lka yoki viloyat kamida besh soatdan o'tilishi lozim. Buning uchun maxsus tabiiy va iqtisodiy o'lka xaqidagi



atlaslar va yozuvsiz kartalar, qo'llanmalar, darslik sifatidagi kitoblar tayyorlanishi kerak. Bunda har bir tabiiy va iqtisodiy o'lkani tashkil etgan viloyat uning tumanlari, yirik shaharlarining atlaslari va yozuvsiz kartalari bilan ishlashga aloqida to'xtalib o'tish o'quvchi yashayotgan zaminni yanada chuqurroq bilishga xizmat qiladi.

Ettinchidan. Biz umumta'lim maktablarining geografiya darslarida atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash mavzusini o'rgatishda, "Evropacha" qarash va qolipdan uzoqda keta olmayapmiz. Ma'lumki, Markaziy Osiyo madaniyati shaharlarning rivojlanishi o'ziga xos hususiyatga ega. To'g'ri Markaziy Osiyo va O'zbekistonda urbonizatsiya ko'rsatkichini, ya'ni shahar aholisi ulushini rivojlangan mamlakatlarning 80-90% darajasida bashorat qilish haqiqatdan ancha yiroq. Ammo bu Markaziy Osiyo va O'zbekistonda urbonizatsiya jarayoni mavjud emas degan xulosaga kelish noto'qri. Aksincha u mamlakatimizda mavjud. Biroq uning tarixiy, iqtisodiy, geografik va boshqa hususiyatlari Evropa mamlakatlarinikidan tubdan farq qilishini o'quvchilarga taqlil qilib berish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Markaziy Osiyo respublikalarining shaharlarining atlaslari va yozuvsiz kartalari bilan ishlashni o'quvchilarga o'rgatishda urbonizatsiya hususiyatlariga aloqida etibor berish kerak. Markaziy Osiyo mamlakatlarini shaharlari asosan yangi qurilgan shahar hisoblanib, ular yangi sanoatlashgan XX asrda shaklangan, faqat Markaziy Osiyo va O'zbekiston shaharlarigina azaldan ma'lum.

Sakkizinchidan. Geografiya fanlarida atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlashda jumladan boshqa fanlar aloqadorlikda olib borilishi kerak. Geografiya fanlarining yana bir omili uning ichki salohiyatidan boshqa



fanlar bilan aloqadorlikda olib borilishi kerak. Geografiya fanlarida atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlashda yana bir omili uning ichki salohiyati boshqa fanlar bilan qo'shnichyailik mavqeidan to'laroq foydalanishi xisoblanadi. Men umumta'lim maktablarining geografiya darslarida atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlash mavzusini o'qitish metodikasini malakaviy bitiruv ishimda yozib, shunga amin bo'ldimki geografik atlaslar va yozuvsiz kartalar bilan ishlashda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiya-demografiya, tarix, etnografiya, tibbiyot, ququq, siyosat, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar bilan chambarchas boqliq ekan. Ammo "narigi qirqoq"ga o'tib ketmasligi uchun geografiya o'qituvchisi hududiylik, regionallik, komplekslilik hususiyatlariga asoslanishi kerak.

To'qqizinchidan. Mavzu o'rganilib bo'lgach, uning tabiati, ekologiyasi xaqida o'quvchilarga qisqacha ma'lumot berib o'tilishi lozim. Bizga ma'lumki 20 asrning 60 yillarigacha inson mehnat jarayonida tabiiy muqit katta miqyosda turli o'zgarishlarga uchramagan tabiatni komponentlari orasidagi o'zaro munosobatlari va ta'sirlari ko'p yillar mobaynida deyarli urganmagan.

## **F O Y D A L A N I L G A N   A D A B I Y O T L A R**

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T. "O'zbekiston" 1995 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. "O'zbekiston" 1999 yil.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat", 2008 yil.
4. Asanov G., Nabixonov M., Safarov, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi T. "O'zbekiston" 1997 yil
- 5 Bogdanov O.P. O'zbekiston hayvonlari. T.: O'qituvchi, 1983-320 b.
6. Nartov N.A. Geopolitika, M., Izdatel'stvo politicheskoy literaturi 2002.
7. Rafiqov A.A., Azimov Sh. Amaliy geografiya. T.: O'qituvchi, 2000.
8. G'ulomov P., Vahobov H., Hasanov A. Turkiston tabiiy geografiyasi. T.:
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti: 2-j. -2001; 3,4-j. – 2002; 5-j. – 2003
10. Babanskiy Hozirgi zamon ta'limi maktablarida o'qitish metodlari T. "O'qituvchi" 1990 yil
11. Vetshteyn L.M. Ya Navaiyskiy sementchik. T. "FAN" 1999 yil
12. Musaev P. O'zbekiston geografiyasini o'qitish T. "O'qituvchi" 1979 yil
13. Muminov O. Zamonaviy geografiya darsiga quyiladigan talablar. T. "O'qituvchi" 1986 yil
14. Muminov O. Zamonaviy geografiya darsiga quyiladigan talablar T. "O'qituvchi" 1990 yil
15. Qurbonniyozov R. O'zbekiston geografiyasi T. "O'qituvchi" 1997 yil
16. O'zbekiston, viloyatlar, qoraqolpog'iston T. "FAN". 1995 yil
17. O'zbekiston respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi T. "O'zbekiston" 1996 yil
18. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi T. 1999 yil
19. Do'stlik bayroqi. Marvarid shahar maqolasi 1998 yil. 29 avgust.
20. Geografik atlaslar 5-6-7-8-9 sinflar.

